

“PEDAGOGY & PSYCHOLOGY”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 3-son

Jurnal 2023-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO-2025

Muassis: Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi
Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2022-yil 16-noyabr № 04-8644-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Sattorov Mirshod Erkinovich, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jamoatchilik kengashi raisi:

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib:

Nusratov Anvar Ne'matjonovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Jurnal 2023-yilda tashkil etilgan, oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,
E-mail: [sjkamolot@gmail.com](mailto:sjakamolot@gmail.com)
Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 2992-8966 e

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”	TAHRIR HAY’ATI:
Muassis: Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot Agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2022-yil 16-noyabr № 04-8644-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan. Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich–pedagogika fanlari doktori,professor Jamoatchilik kengashi raisi: Adizov Baxtiyor Raxmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor, Mas’ul kotib: Nusratov Anvar Ne’matjonich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent Jurnal 2022 yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24- uy, E-mail: sjkamolot@gmail.com Jurnal sayti: https://scientificjournal.uz/ Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.	Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Raxmonovich Adizov Baxtiyor Raxmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor Xamidov Obidjon Xafizovich · iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mamurov Bahodir Baxshullayevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya) Emelyanova Irina Evgenievna, pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya) Filippova Oksana Gennadiyevna, pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya) Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor (Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, Rossiya) Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor Bafayev Muxiddin Muxammatovich psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Izbullayeva Gulchehra Veleriyeвна, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Qo‘ldoshev Rustamek Avezmurodovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent Ramazonov Jahongir Djalolovich psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent Umurov Zarif Latifboyevich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent Nusratov Anvar Ne’matjonich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sattorov Mirshod Erkinovich psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

MUNDARIJA:

<i>Shomurodova Maxfuza Aslitdinovna. BOULBI METODIKASINI O'ZBEK KONTEKSTIGA MOSLASHTIRISH: ZARURIYAT VA YONDASHUVLAR</i>	6
<i>Narzullayev Sayfullo Sadullayevich. UZUNLIKKA VA BALANDLIKKA SAKROVCHILARDA YUGURIB KELISH VA DEPSINISH TEXNIKASINING AHAMIYATI</i>	11
<i>Qobiljonov Qosimjon Kobiljon o'gli. JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIN ING PEDAGOGIK MAHORATI ASOSLARI.</i>	14
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich. O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIYOTIDA DOSTONLARNING O'RINI.</i>	22
<i>Nazarov Furkatjon Abdulfayzovich, Xatamova Gulbahor Abdumo'min qizi. OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOLARI</i>	29
<i>Idiyev Rustam Dilmurodovich. JISMONIY TARBIYA VOSITALARINING BOLA ORGANIZMINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.</i>	34
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna. BOLALARNING AQLIY VA JISMONIY TARBIYASI SOHASIDAGI PEDAGOGIK G'OYALAR DINAMIKASINING O'ZARO BOG'LIQLIGI</i>	40
<i>Akramova Gulhayo Mexriddin qizi. BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY-AXLOQIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI</i>	49
<i>Qo'ziyeva Feruza Ismoilovna. AHOLI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA YANGICHA YONDASHUV</i>	53
<i>Idiyev Rustam Dilmurodovich. MAXSUS MASHQLAR ORQALI UMUMIY CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI</i>	58
<i>Сатторов Миршод Эркинович. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЁННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ТРЕНИРОВКИ НА МОБИЛЬНЫХ СПОРТИВНЫХ КОМПЛЕКСАХ</i>	64
<i>G'.K.Saidov, Y.N. Tulaykina. THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PERSONALITY AND PROFESSIONAL TRAINING OF UNIVERSITY STUDENTS</i>	69
<i>Тураев Махмуд Мухамедович. ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ</i>	72
<i>Usmonov Zufar Husen o'g'li. UMUM TA'LIM MAKTABLARDA JISMONIY TA'LIM SAMARADORLIGI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI</i>	77
<i>Эшов Эркин Сатторович. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ</i>	86

Мансуров Олимжон Одил ўгли. ТЕХНОЛОГИИ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТАРШЕКЛАССНИКОВ ЧЕРЕЗ ОРГАНИЗАЦИЮ И ПРОВЕДЕНИЕ СПОРТИВНЫХ ПРАЗДНИКОВ	95
Саидов Иззатулло Истамович, Саидмуродов Хожиакбар Салим ўгли. ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ СПОРТСМЕНОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ	101
Найимов Азизбек Алишер ўгли. РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ЗАНЯТИЙ ЛЁГКОЙ АТЛЕТИКОЙ	106
Ахмадов Шохрух Рахматулло ўгли. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗРЕШЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ У ПОДРОСТКОВ	111
Saidov Izzatullo Istamovich, Juraev Umidjon Shavkiddin ugli. THEORY AND METHODOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING	117
Abduraxmonova Dilbar O'tkirovna. OILA INSTITUTIDA ER-XOTIN ROLLARI VA QADRIYATLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI: TAHLIL VA IZLANISH	122
Саидов Иззатулло Истамович, Саидмуродов Хожиакбар Салим ўгли. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УКРЕПЛЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЮ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ В УСЛОВИЯХ ВУЗА	127
Хаитова Ойдиннисо Алиевна. ПСИХОДИАГНОСТИКА АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ	132
Shamsov Murodjon Kurbonovich. THE ROLE OF SPECIAL EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF HANDBALL PLAYERS	138
Xaydarov Dilshodbek Aminjon ugli. THE ROLE OF SPECIAL EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF JUDOISTS	144

BOULBI METODIKASINI O'ZBEK KONTEKSTIGA MOSLASHTIRISH: ZARURIYAT VA YONDASHUVLAR



*Shomurodova Maxfuza Aslitdinovna,
Psixologiya fanlari magisrti,
Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi,
Toshkent shaxri, shomurodovama@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jon Boulbining bog'lanish nazariyasini o'zbek madaniy muhitiga moslashtirish zarurati va ushbu jarayon uchun taklif etiladigan yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'zbek oilalarining kollektivizm, ko'p avlodli aloqalar va an'anaviy gender rollari kabi xususiyatlari hisobga olinib, bog'lanish uslublarining farzand tarbiyasiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada metodikani moslashtirish orqali o'zbek kontekstida uning samaradorligini oshirish yo'llari taklif etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость адаптации теории привязанности Джона Боулби к узбекской культурной среде и предлагаются подходы для этого процесса. Учитываются особенности узбекских семей, такие как коллективизм, много поколенные связи и традиционные гендерные роли, а также исследуется влияние стилей привязанности на воспитание детей. Предлагаются пути повышения эффективности методики в узбекском контексте посредством ее адаптации.

Abstract. This article examines the necessity of adapting John Bowlby's attachment theory to the Uzbek cultural context and proposes approaches for this process. It considers characteristics of Uzbek families, such as collectivism, multi-generational relationships, and traditional gender roles, while exploring the impact of attachment styles on child-rearing. The article suggests ways to enhance the methodology's effectiveness in the Uzbek context through adaptation.

Kalit so'zlar: bog'lanish uslublari, Boulbi nazariyasi, o'zbek madaniyati, farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar

Ключевые слова: стили привязанности, теория Боулби, узбекская культура, воспитание детей, семейные ценности

Key words: attachment styles, Bowlby's theory, Uzbek culture, child-rearing, family values

O'zbekistonda oila tuzilishi an'anaviy qadriyatlar, kollektivizm va ko'p avlodli aloqalarga asoslanadi [5]. Bu jamiyatda bolani tarbiyalash faqat ota va ona bilan

chegaralanmaydi, balki buvilar, bobolar, ammalar, xolalar va boshqa yaqin qarindoshlar ham bu jarayonda faol ishtirok etadi[5]. Bunday kengaytirilgan tizim bog'lanishning o'ziga xos shakllarini vujudga keltiradi, bu esa g'arb psixologiyasida keng tarqalgan ona-bola diadasiga asoslangan yondashuvni o'zbek kontekstida to'liq qo'llashni qiyinlashtiradi [10]. Masalan, o'zbek oilalarida katta yoshlilarga hurmat va ularga itoatkorlik kabi qadriyatlar bolaning ota-onasi bilan munosabatlaridan tashqari, kengroq ijtimoiy muhit bilan aloqalarini shakllantiradi [9].

Shu sababli, bog'lanish nazariyasini o'zbek madaniyatiga moslashtirish bolalar tarbiyasidagi hissiy va ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi [4]. Bu jarayon nafaqat ilmiy jihatdan muhim, balki amaliy ahamiyatga ham ega: o'zbek oilalari uchun maxsus psixologik yordam tizimlari va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi [6]. Ushbu maqola bog'lanish nazariyasini o'zbek kontekstiga integratsiya qilishning dolzarbligini ko'rib chiqadi va bu jarayon uchun taklif etiladigan yondashuvlarni muhokama qiladi. Shuningdek, gender rollari, kollektiv qadriyatlar va an'anaviy tarbiya usullarining bog'lanish uslublariga ta'siri tahlil qilinadi [11].

Bog'lanish nazariyasi XX asrning 50-yillarida psixolog Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u Ikkinchi Jahon urushi davrida ota-onalaridan ayrilgan bolalarni o'rganish asosida shakllangan [4]. Boulbi bog'lanishni biologik va evolyutsion nuqtai nazardan muhim deb hisoblagan: bola omon qolishi uchun asosiy vasiy bilan yaqin aloqada bo'lishi zarur [4]. Meri Eynsfort esa "G'alati vaziyat" deb nomlangan eksperiment orqali bog'lanish uslublarini uch toifaga ajratdi: xavfsiz, xavotirli-ambivalent va qochuvchi [3]. Keyinchalik, Meyn va Solomon tomonidan tartibsiz bog'lanish toifasi qo'shildi [7]. Ushbu tasniflar bog'lanish nazariyasining asosini tashkil etib, bolaning hissiy rivojidagi ota-ona munosabatlarining ta'sirini tushunishda muhim vosita bo'ldi [3,7].

Alan Srouf o'zining Minnesota longitudinal tadqiqotida xavfsiz bog'lanishning uzoq muddatli ijobiy oqibatlarini ko'rsatdi: bunday bolalar ijtimoiy jihatdan kompetent va stressli vaziyatlarga moslashuvchan bo'lib o'sadi [8]. Van Ayzendorn va Kronenbergning meta-tahlillari esa madaniy farqlarni ta'kidlaydi: individualistik jamiyatlarda xavfsiz bog'lanish ustunlik qilsa, kollektivistik madaniyatlarda guruh birligi va garmoniyasiga ko'proq e'tibor beriladi [10]. Bu esa o'zbek madaniyatidagi bog'lanish uslublarini o'rganishda maxsus yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda oila psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar madaniy xususiyatlarning bog'lanishga ta'sirini ochib beradi. Masalan, Z.A. Abidova ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda shaxsiy tolerantlikning bilvosita rolini ta'kidlaydi [2]. U. Tursunov o'zbek oilalaridagi an'anaviy tarbiya usullarini o'rganib, katta yoshlilarga hurmat va kollektiv qadriyatlarning muhimligini qayd etadi [9]. R. Ibragimov ko'p avlodli oilalarda buvilar va bobolarning tarbiyadagi rolini alohida e'tirof etadi [5], N. Xamidova esa o'zbek oilalarida onaning hissiy yaqinligi va otalarning tarbiyadagi cheklangan ishtirokini tahlil qiladi [6].

Xorijiy tadqiqotlarda ham qiziqarli natijalar mavjud. Wilhelm va boshqalar (2016) tomonidan o'tkazilgan 35 yillik longitudinal tadqiqotda ota-ona tarbiyasi uslublari va katta yoshdagi bog'lanish o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi [11]. Tadqiqotda Parental Bonding Instrument (PBI) va Relationship Questionnaire (RQ) vositalaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, optimal tarbiya (yuqori vasiylik, past nazorat) ayollarda xavfsiz bog'lanishni mustahkamlasa, erkaklarda e'tiborsiz tarbiya (past vasiylik, past nazorat) xavotirli bog'lanishga olib keladi [11]. Bu natijalar o'zbek kontekstida gender rollarining tarbiyaga ta'sirini o'rganish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Boulbi metodikasini o'zbek kontekstiga moslashtirish uchun quyidagi batafsil yondashuvlar taklif etiladi:

1. Ma'lumot yig'ish jarayoni: O'zbek oilalarida intervyular va kuzatuvlar tashkil etiladi. Intervyular yarim strukturlashtirilgan shaklda o'tkazilib, ota-onalar, buvilar va bobolar bilan suhbatlar olinadi. Kuzatuvlar bolaning oila a'zolari bilan tabiiy muhitdagi o'zaro munosabatlari asosida amalga oshiriladi.

2. "G'alati vaziyat" eksperimentini o'zgartirish: Eksperimentga nafaqat ona, balki boshqa vasiylar (masalan, buvi yoki ota) kiritiladi. Bolaning madaniy me'yorlarga mos xatti-harakatlari (hissiy cheklanganlik yoki kollektiv yaqinlikka intilish) hisobga olinadi.

3. Yangi vositalar ishlab chiqish: Namunaviy savollar: "Oilangizda muhim qarorlar qanday qabul qilinadi?" yoki "Ulug' yoshli qarindoshlaringiz tarbiyangizda qanday ta'sir ko'rsatdi?" kabi savollar bilan so'rovnomalar tuziladi. O'lchovlar: Kollektivism darajasini baholash uchun 1 dan 5 gacha ballik shkala ishlatiladi (1 – "to'liq individualistik", 5 – "to'liq kollektivistik").

4. Gender rollarini tahlil qilish: Otalar va onalarning tarbiyadagi rollari alohida o'rganiladi. Masalan, otalar bilan qochuvchi bog'lanish sabablari (hissiy cheklanganlik) va onalar bilan xavotirli bog'lanishning kelib chiqishi (haddan tashqari himoya) tahlil qilinadi.

5. Psixologik testlarni moslashtirish: "Adult Attachment Interview" testi o'zbek tiliga tarjima qilinadi va kollektiv qadriyatlar (masalan, "Oilangiz sizni qanchalik qo'llab-quvvatlaydi?") aks ettirilgan savollar bilan boyitiladi.

O'zbek oilalarida bog'lanish uslublari kollektivism va ko'p avlodli tuzilmalar ta'sirida shakllanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xavfsiz bog'lanish ko'p avlodli oilalarda keng tarqalgan bo'lib, bu bolalarning bir nechta vasiyga ishonishi bilan bog'liq [1]. Gender rollari tahlilida onalar bilan xavotirli bog'lanish (haddan tashqari himoya tufayli) va otalar bilan qochuvchi bog'lanish (hissiy cheklanganlik tufayli) ko'proq uchraydi [6].

Sroufe (2005) xavfsiz bog'lanish stressga chidamlilikni oshirishini ta'kidlasa, o'zbek kontekstida bu xususiyat ko'p avlodli qo'llab-quvvatlash tufayli yanada mustahkamlanadi. Van IJzendoorn va Kronenberg (1988) kollektivistik jamiyatlarda guruh garmoniyasiga e'tibor berilishini ko'rsatgan bo'lsa, o'zbek oilalarida bu oilaviy qarorlar va katta yoshlilarga hurmat shaklida namoyon bo'ladi.

Vilgelm va boshqalar (2016) tadqiqotidagi gender farqlari o'zbek kontekstida ham tasdiqlanadi: otalar uchun yuqori nazorat xavfsiz bog'lanishni mustahkamlasa, qiz bolalar uchun bu o'ziga ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Buvilarning tarbiyadagi roli esa G'arb tadqiqotlarida kam o'rganilgan o'ziga xos jihat sifatida alohida e'tiborga loyiq.

Jadval: Bog'lanish uslublari va ularning ta'siri

Bog'lanish uslubi	Xususiyatlari	O'zbek kontekstida ta'siri
Xavfsiz	Bolaning vasiyga ishonishi, stressga chidamlilik	Ko'p avlodli oilada kengayishi mumkin
Xavotirli	Bolaning xavotiri, vasiyga qattiq bog'lanishi	An'anaviy onalik rolida ko'proq uchraydi
Qochuvchi	Hissiy cheklanganlik, vasiydan uzoqlashish	Otalar bilan munosabatlarda ko'proq namoyon
Tartibsiz	Noaniq xatti-harakat, travmatik tajribalar	Oiladagi nizolar tufayli paydo bo'lishi mumkin

Boulbi metodikasini o'zbek kontekstiga moslashtirish bolalarni tarbiyalashda bog'lanish uslublarining ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Moslashtirishning foydalari orasida oilaviy psixologik yordamni yaxshilash va madaniy jihatdan mos tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva, M. (2023). Stressga chidamlilik va bog'lanish uslublari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Abidova, Z.A. (2023). Уровни толерантности личности как регуляторный фактор рационального совладающего поведения. Личностные и регуляторные ресурсы человека в условиях социальных вызовов, 180–184
3. Eynsfort, M.D.S., Blehar, M.C., Waters, E., & Wall, S. (1978). Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation. Lawrence Erlbaum Associates.
4. Boulbi, J. (2004). Attachment and Loss. Penguin Books.
5. Ibragimov, R. (2020). Семейные ценности и воспитание в узбекской культуре. Центральназиатские культурные исследования.
6. Xamidova, N. (2017). O'zbek oilasida gender rollari va hissiy munosabatlar. Toshkent: Universitet Nashrlari.
7. Meyn, M., & Solomon, J. (1990). Procedures for identifying infants as disorganized/disoriented during the Ainsworth Strange Situation. In M.T. Greenberg et al. (Eds.), Attachment in the Preschool Years (pp. 121–160).

8. Srouf, L.A. (2005). The Development of the Person: The Minnesota Study of Risk and Adaptation from Birth to Adulthood. Guilford Press.
9. Tursunov, U. (2019). Культурные аспекты узбекских практик воспитания. Узбекский журнал психологии.
10. Van Ayzendorn, M.H., & Kronenberg, P.M. (1988). Cross-cultural patterns of attachment: A meta-analysis of the Strange Situation. *Child Development*, 59(1), 147–156.
11. Vilgelm, K., va boshqalar (2016). Parental bonding and adult attachment styles: A 35-year longitudinal study. *Journal of Family Psychology*, 30(4), 512–520.

UZUNLIKKA VA BALANDLIKKA SAKROVCHILARDA YUGURIB KELISH VA DEPSINISH TEXNIKASINING AHAMIYATI

Narzullayev Sayfullo Sadullayevich
Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada uzunlikka va balandlikka sakrovchilarda yugurib kelish va depsinish texnikasining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: engil atletika, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, sakrash texnikasi, yugurish, depsinish, sapchish, qadam, tayanch, uchish, qo'nish, langarcho'p, mashq, mashg'ulot, egiluvchanlik, yuklama, trayektoriya.

Sakrash – oyoq va tana muskullarini kuchaytirish va sakrovchanlikni hosil qilishi uchun eng yaxshi mashqlardan biri bo'lib, faqat engil atletikachilarga emas, balki boshqa sport turlarining vakillariga ham, ayniqsa, basketbolchilarga, voleybolchilarga va futbolchilarga zarurdir. Sakrovchilar uchun yugurish muhim ahamiyatga ega.

Yugurib kelishning asosiy elementlari harakatlar shakli, tezlik, uzunlik, yo'nalish, ritm va depsinishga tayyorlanish bo'lib ular balandlikka sakrashni hammasida bor.

Yugurib kelish 7-9 asosiy qadamlaridan iborat bo'lib (11-12 m) qo'shimchasi 4-6 yugurish qadamlardan (3-4 m) dan iborat bo'ladi.

Depsinish harakati oxirgi qadamiga, silkinch oyoqda olg'a siljish tezligi qanday bo'lishiga bog'liq. Sakrovchi silkinch olg'a siljish tezligi kamroq pasayishi uchun, sakrovchi uni erga qo'yayotganida yumshoqqina bukadi, tizzani esa oldinga chiqaradi. Keyin tovonni tez erdan uzib, oyoq uchida olg'a siljishni davom ettiradi. Shunday vaqtda sakrovchining gavdasi vertikal tezlikda oyoq tagi tayanch nuqtasi atrofida aylanayotganday harakat qiladi.

Uzunlikka sakrovchilarni muvaffaqiyatli depsinishi uchun sakrovchini gavda holati va depsinuvchi oyoq yog'och taxtaga qanday qo'yilgani katta ahamiyatga ega.

Tizzasi 1170-172 gacha to'g'irlangan depsinuvchi oyoq yuqoridan pastlab orqaga tortib tez harakat bilan U.O.M. proeksiyasiga yaqinlashib, taxtaga qo'yiladi. Oyoq taxtaga qo'yilganida, gorizontal chiziq bilan pastga tushayotgan depsinuvchi oyoq chizig'i o'rtasidagi burchak 28 dan 54 gacha oshadi. Yerga nisbatan esa har doim pastlab oldinga qo'yiladi. Depsinuvchi oyoq soni bilan boldir o'rtasidagi burchak 141 dan 170 gacha oshadi.

Oyoqni taxtaga qo'yayotganda yoziluvchi mushaklar tarang bo'lishi va oyoq tagi taxtaga tegishi paytida oyoq deyarli to'g'ri bo'lishiga e'tibor berishi kerak.

Shunday qilinsa gorizontalar harakatdan tushadigan yuklama yaxshi bardosh beradi. Dinamograf ko'rsatishiga tayanch oyoqqa tushadigan yuk 600 kg va undan ortiq bo'lishi mumkin. Depsinish juda tez bajariladi. Taxtaga oyoq quyidan depsinish tamom bo'lishigacha hammasi bo'lib 0.1-0.13 sek. vaqt sarflanadi. Depsinish vaqtidagi vertikal tezlik 3.0-3.2 m. sek.ga etishi mumkin.

Uch hatlab sakrovchilarning gorizontalar tezligi "sapchish" va "qadam" oxirida oyoqni erga qo'yish vaqtida pasayadi. Gorizontalar tezlik qancha ko'p tormozlansa, "qadam" va "sakrash" uzoqligi shuncha kamayadi.

"Qadam" va "sakrash" uzoqroq bo'lsin uchun, uchib chiqish burchagi "qadamda" – 11-14 ga "sapchishda" – 14 – 16 va "sakrashda" – 18 – 22 ga teng (Y.V. Verxoshanskiy) uchib chiqish burchagini oshirish bilan sakrashning uchish fazalaridagi trayektoriya balandlashadi. "Sapchish", "qadam" va "sakrash" traektoriyalarining balandligi gorizontalar tezlik darajasiga bog'liq tezlik yuqori bo'lib, uchib chiqish burchagi katta bo'lsagina, uch hatlab sakrashda yuqori natija ko'rsatish mumkin.

Uch hatlab sakrashda eng uzog'i – "sapchish", "sakrash" esa kattaroq va eng qisqasi – "qadam" bo'ladi.

35-36%	29-30%	33-34%
sapchish	qadam	sakrash

Y.V. Verxoshanskiy fikricha sakrash tezligini oshirganda uning qismlari o'rtasidagi nisbatan quyidagicha proporsiyaga yaqinlashadi: ular sakrashning umumiy uzunligidan 1-36.5%, 2-29.0%, 3-34.5% tashkil qiladi. 17,5 m ga sakrash uchun mana bunday nisbat optimaldir:

$$1 - (6.38 - 0.16) - 2 - (5.16 - 0.16) - 3 (5.96 - 0.13).$$

Langarcho'p bilan sakrashning boshqa sakrashlardan farqi ko'chma tayanch langarcho'p bilan bajarilishdir. U yugurib kelishdan, langcho'pni erga tirash va depsinishdan, osilishdan, langarcho'pda sakrovchining ko'tarilishida, plankani aylanib o'tish va erga tushishdan iborat. Bu fazalar hammasi bir biri bilan bog'liqdir.

Hozirgi vaqtida plastik massalardan yasalgan langarcho'plar bilan sakrash keng qo'llanilmoqda. Bunday langarcho'plar juda egiluvchan va juda tarang bo'ladi. Plastik egiluvchan langarcho'plar ishlatilishi sifatini langarcho'pni yuqoriroqdan 4 m 80 sm gacha, ushlarash imkonini beradi, shuning uchun hozirgi vaqtda jaxon rekord 6 m dan oshib ketdi. Usta sakrovchilardan plastik egiluvchan langarcho'plarining egilishi o'qi sakrash vaqtida 125-130 sm.gacha etadi, eng yuqori nuqtasi xorda bo'ylab 90-100 sm kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.
2. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.
3. Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii. – M.: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2009. – 464
4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. – T.: 2008.

5. Abdukhamidov, R. N. (2021). IMPROVING PSYCHOPHYSIOLOGICAL TRAINING OF TEENAGE BOXERS WITH THE HELP OF IMPROVISED MEANS OF GAMES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

6. Абдухамидов, Р. Н. (2021). Самарали восита ва усуллар ёрдамида ўсмир боксчиларнинг психофизиологик тайёргарлигини такомиллаштириш. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

7. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. Қ., Усмонхўжаев, С. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В БОКСЕ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

8. Narzullaev S.S., Mo'minov F.F. "MODELING THE PERIOD OF PHYSICAL FITNESS OF YOUNG PLAYERS" 2023 год № 12. 133-137 b.

9. Narzullaev S.S. "INNOVATIVE TECHNIQUES FOR DEVELOPING PHYSICAL QUALITIES OF PRESCHOOLERS THROUGH SELECTED SPECIAL EXERCISES." ISSN-Online: 2676-7104. 457-468 p.

10. Narzullayev S.S. "Maktab o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda engil atletika vositalaridan foydalanish" ISSN 3030-3796. 2024, № 6. 115-118 b.

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIN ING PEDAGOGIK MAHORATI ASOSLARI.

Qobiljonov Qosimjon Kobiljon o'gli

Buxoro davlat universiteti

"Sport nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Pedagogik mahorat ilmiy bilimlar va metodik san'atning birligiga asoslangan shaxsning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat motivlarining etakchi ahamiyati bilan tavsiflanadi.

Tayanch so'zlar: pedagogik faoliyat, o'qituvchi, talaba, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, shaxsiy fazilatlar.

ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Кабилжанов Касимжан Кабилжанович

Бухарский государственный университет

Доцент кафедры "Теория и методика спорта"

Аннотация. Рассматривается педагогическое мастерство как свойство личности, основанное на единстве научных знаний и методического искусства при ведущем значении профессионально значимых мотивов деятельности.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, педагог, ученик, педагогические умения, педагогические способности, личностные качества.

FUNDAMENTALS OF PROFESSIONAL SKILL OF TEACHER OF PHYSICAL EDUCATION

Kabilzhanov Kasimzhan Kabilzhanovich

Bukhara State University

Associate Professor of the Department of "Theory and Methods of Sports"

Abstract. Pedagogical skill is reviewed as property of the individual is based on unity of scientific knowledge and methodical art with professionally significant motives of activity as leading value.

Key words: pedagogical activities, teacher, pupil, pedagogical skills, teaching abilities, personality.

KIRISH. O'qituvchining pedagogik mahorat darajasini muntazam ravishda oshirish - ijtimoiy talab hisoblanib, har bir o'qituvchi shaxsiy ehtiyoj sifatida o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirishning eng samarali va qulay yo'llarini izlashi va amalga oshirishi lozim.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu mahorat umumiy psixologik va pedagogik asoslarga ega. Har qanday kasbiy faoliyatning mazmuni va xususiyatlari jamiyatning ob'ektiv talablari bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun ular o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash maqsadi - sog'lom, jismonan barkamol, ijtimoiy faol o'quvchilarni shakllantirishda ifodalanadi.

Maqsadga ta'lim, tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalarini hal qilish orqali erishiladi.

Maqsad va vazifalar o'qituvchi faoliyatining tegishli tuzilishi orqali amalga oshiriladi. Har bir faoliyatda ishning tayyorgarlik, ijro va nazorat bosqichlarini shartli ravishda ajratish mumkin.

Pedagogik mehnatga kelsak, uning uchta muhim jihati ajralib turadi: kognitiv (talabalarni o'rganish, mazmuni va mehnat sharoitlari), loyihalash (ta'lim va tarbiya mazmunini rejalashtirish, o'quvchilarning faoliyati va o'z faoliyati) va bevosita ijro etuvchi (talabalarni tarbiyalash, o'qitish va sog'lomlashtirish).

ASOSIY QISM. Pedagogik faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va tadqiqotchilik faoliyat jarayonini qamrab oladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining konstruktiv faoliyatiga o'qitish va tarbiyani uzoq muddatli rejalashtirish, o'quv va tarbiyani yil uchun rejalashtirish, dars va dars davomida rejalashtirish kiradi. U o'quvchilarning jismoniy tarbiya vazifalarini muayyan davr uchun mohirona loyihalashda, shu vazifalarga muvofiq o'quv materialini tanlash va mazmunida, o'quvchilar va o'z faoliyatini rejalashtirishda namoyon bo'ladi.

Tajribali o'qituvchining konstruktiv faoliyatining o'ziga xos xususiyati, birinchi navbatda, uzoq muddatli rejalashtirishda. Uning asosida choraklik va dars ishlanmalari tuziladi. Konstruktiv faoliyat birinchi navbatda o'quvchilarning kognitiv va harakat faoliyatini loyihalashga qaratilgan bo'lib, o'quv materialining mazmuni va tuzilishini rejalashtirish va o'qituvchining harakatlarini ushbu vazifaga bo'ysundiradi. Tajribasi past o'qituvchilar o'quv jarayonining mazmuni va ish uslublarini rejalashtirishga ko'proq e'tibor berishadi.

O'qituvchining konstruktiv faoliyati faqat tashkiliy faoliyat bilan birgalikda barcha keyingi ishlar uchun asos bo'lib, ijobiy natijalar beradi. O'qituvchi bilim, ko'nikma, malakalarni chuqur va doimiy egallash va zarur shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish maqsadida o'quvchilarning turli xil mustaqil faoliyat turlarini tashkil qila olishi kerak.

Tashkiliy faoliyat pedagogik ishning asosiy va eng qiyini hisoblanadi. Sinfdan tashqari jismoniy tarbiya va ommaviy ishlarni olib borishda o'qituvchining tashkiliy faoliyatining o'рни alohida ahamiyatga ega. Tashkiliy ish konstruktiv faoliyat loyihalarini amalga oshirish va uni tuzatishdan iborat.

U o'quv jarayonining mazmunini, o'quvchilarning faoliyatini va o'z xatti-harakatlarini tashkil qilishni o'z ichiga oladi.

Masalan, darsda o'quv materialini to'g'ri taqdim etish: vazifalarni belgilash, jismoniy mashqlarni ko'rsatish va tushuntirish, o'quvchilarga ularni bajarishga yordam berishdan iborat. Talabalarni boshqarish ularning e'tiborini safarbar qilish, shakllanish va qayta shakllantirishni aniq bajarish, jismoniy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish, jismoniy mashqlarning alohida turlarini mashq qilish va jismoniy faollikni dozalashtirishdan iborat.

O'qituvchi o'z xulq-atvorini diqqatni oqilona taqsimlash, o'quvchilar bilan muloqot qilishning mos ohangini tanlash va o'z harakatlarini nazorat qilish zarurati asosida quradi. Talabalarining mustaqil faoliyatini yaxshi tashkil etish va o'zini o'zi tashkil etishning yuqori darajasi tajribali o'qituvchiga xos belgilardir.

O'qituvchining kommunikativ faoliyati o'quvchilar va hamkasblar bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyatidan iborat. O'qituvchi faoliyatining asosiy xususiyati - bu ish ob'ektining o'ziga xosligi. Bu talabaning shaxsiyati. Ushbu ob'ekt bir vaqtning o'zida faol sub'ekt sifatida ishlaydi. Demak, pedagogik ishning muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchiga, balki o'quvchiga, ularning munosabatlariga ham bog'liq.

O'qituvchi dars bolalar va o'qituvchining birgalikdagi sa'y-harakatlari ekanligini va ishning muvaffaqiyati birinchi navbatda ularning munosabatlari bilan belgilanadiganligini unutganida ko'p qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar yuzaga keladi.

O'qituvchi o'quvchilar va hamkasblari bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatishni bilsa, dars va o'z faoliyatini rejalashtirishda o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olsagina, konstruktiv va tashkiliy faoliyat muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aniqlandi.

O'qituvchining mehnatini tadqiqot va ijodiy faoliyat elementlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalar psixologiyasini tushunish qobiliyati va o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish asosida o'z faoliyatini ijodiy qayta qurish qobiliyati pedagogik mahoratni oshirish uchun o'qituvchi faoliyatining barcha boshqa tarkibiy qismlarini takomillashtirishning asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Albatta, mutaxassis amaliyotida pedagogik faoliyatning sanab o'tilgan barcha tarkibiy qismlari chambarchas bog'liq va o'zaro bog'liqdir, lekin ularning nisbati sezilarli darajada farq qiladi. Har bir insonda ustunlik qiladigan narsa bor, har bir shaxs u yoki bu o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, muayyan faoliyat sohasida o'zini boshqalarga qaraganda yorqinroq va to'liqroq ochib berishga qodir. Yuqori darajadagi konstruktiv faoliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar, masalan, har doim ham etarli kommunikativ qobiliyatlarga ega emas va aksincha.

Inson o'z faoliyatining eng kuchli tomonlariga tayanadigan vazifalarni eng yaxshi bajara oladi. Mutaxassisga o'zining qimmatli fazilatlaridan maksimal darajada foydalanish va kamchiliklarni qoplash imkonini beradigan umumiy va individual ish usullarining kombinatsiyasi bo'lgan o'qituvchining individual ish uslubi shunday shakllanadi [1, 2].

Talabalar jismoniy tarbiyasining maqsad va vazifalari, shuningdek, pedagogik faoliyatning tuzilishi jismoniy tarbiya o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari mazmunini belgilaydi.

O'qituvchining bilimi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biridir. O'qituvchining bilim doirasi qanchalik keng bo'lsa, uning mahorati shunchalik to'liq bo'ladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilimlari tarkibi ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik, tibbiy-biologik va maxsus bilimlardan iborat. Umumta'lim o'qituvchining madaniyat darajasini belgilaydi va kasbiy va maxsus bilimlarni sifatli o'zlashtirish uchun intellektual asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy bilim o'qituvchi dunyoqarashining nazariy asosini, kasbiy va maxsus bilimlarning uslubiy asosini tashkil etadi. Psixologik va pedagogik bilimlar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining mohiyatini belgilaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, boshqa fan o'qituvchilariga qaraganda, ko'pincha o'quvchilar bilan yaqinroq (ayniqsa darsdan tashqarida) aloqada bo'lishlari kerak. Talabaning xulq-atvorini boshqarish uchun o'qituvchi bolaning ichki dunyosiga kirib borish, uni tushunish san'atiga ega bo'lishi kerak, bunga esa shaxsning ruhiy xususiyatlarini bilmasdan erishish mumkin emas.

Jismoniy tarbiya fanining asoschilaridan biri P.F.Lesgaft ilmiy bilimli o'qituvchi, albatta, psixolog bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyat ob'ekti - o'quvchi shaxsining o'ziga xosligi shundaki, u bevosita pedagogik ta'sirlarga bog'liq emas, balki aqliy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadi. Shuning uchun pedagogik vositalar va usullarni to'g'ri qo'llash yo'li ko'p jihatdan o'quvchi psixikasini o'rganish orqali amalga oshiriladi [4].

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi sport psixologiyasini ham yaxshi bilishi kerak. O'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilish tajribali o'qituvchining bilimlar tarkibining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Tibbiy va biologik fanlar - anatomiya, biomexanika, fiziologiya, gigiena, tibbiy nazorat va terapevtik jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlar jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilimlari tuzilishining o'ziga xos xususiyatini tashkil qiladi. Ular unga o'quvchilar tanasining turli organlari va tizimlariga ularning yoshi va jinsi xususiyatlarini, sog'lig'i va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda jismoniy mashqlar bilan malakali ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Maxsus bilimlar - jismoniy tarbiya va sport fanlari nazariyasi va metodikasi ham zarur. Ammo ba'zida o'qituvchi nazariy bilimlarning ma'lum bir ustunligiga ega. Biroq, bilimning o'zi o'qituvchilik malakasini belgilamaydi. O'qituvchi undan amaliy faoliyatda foydalanishni bilsagina bilim samarali bo'ladi. Pedagogik mahorat ilmiy bilimlar, ko'nikmalar va birinchi navbatda, kasbiy bilimlarning birligi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Ko'nikmalarning sifati va darajasi ko'p jihatdan ularning ilmiy nazariya talablariga qanchalik asoslanishiga bog'liq. Ularning fanini, bolalar psixologiyasini

bilish va shunga mos ravishda amaliyotda mohirona qo'llash tajribali o'qituvchilarga xosdir.

MUHOKAMA. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy mahoratining mazmuni o'ziga xos harakat va pedagogik mahoratdan iborat.

Birinchisi, maktab o'quv dasturidan (hech bo'lmaganda) jismoniy mashqlar texnikasini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni pedagogik texnikaga bog'lash mumkin, buning yordamida o'qituvchi bilimlarni talabalarga o'tkazadi (mashqlar ko'rsatish, muhofazalash va boshqalar). Pedagogik texnikaning muhim elementlaridan biri to'g'ri, obrazli, ifodali nutqdir.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z faoliyatida tez-tez kommandalar, ko'rsatmalar, buyruqlar beradi. Ularning ta'sir kuchi nafaqat o'qituvchining aytganiga, balki uni qanday aytishiga ham bog'liq. Pedagogik mahoratning o'zi nazariy bilim va amaliy harakatlarni sintez qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining haqiqiy pedagogik mahorati o'quvchilarning jismoniy tarbiyasini rejalashtirish, ular bilan jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish, ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish, keyingi faoliyatini ijodiy takomillashtirish maqsadida ularning ish natijalarini tahlil qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi [2, 4].

Nazariy bilimlar va ularga asoslangan pedagogik mahorat o'qituvchilik kasbining asosiy ob'ektiv mazmunini tashkil etadi. Tajribali o'qituvchilar nafaqat o'z fanini biladi va amaliyotda qo'llay oladi, balki o'qitish va tarbiyalash san'atiga ham ega hisoblanishadi. Bu san'at o'qituvchida professional muhim shaxsiy fazilatlarining etarli darajada rivojlanishi bilangina muvaffaqiyatli shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Qadim zamonlardan beri mutafakkirlar shaxsiy fazilatlarini har qanday ishda muvaffaqiyatga erishishning hal qiluvchi omili deb bilishgan. Pedagog shaxsining o'z o'quvchilariga ta'siri shunday tarbiyaviy kuchni tashkil etadiki, uni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

O'qituvchining shaxsiyati pedagogik ish samaradorligining hal qiluvchi kuchiga aylanadi. Kasbiy faoliyatning har bir turi mutaxassisning o'ziga xos optimal shaxsiy tuzilishiga mos kelishi kerak. O'qituvchining faoliyati jarayonida uning faoliyatining tuzilishi ma'lum darajada ushbu tuzilmani aks ettiruvchi ma'lum shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va boshqa fanlarning shaxsiy fazilatlarini tarkibida sezilarli farqlar mavjud emas. Ishdagi muvaffaqiyat qobiliyatlar bilan ham bog'liq. Qobiliyatlarga ko'ra, psixologlar bir nechta yoki hatto bir turdagi faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarni tushunadilar [2].

Umumiy va maxsus qobiliyatlar farqlanadi. Umumta'lim maktabi va pedagogik ta'lim muassasasida o'qitishdagi muvaffaqiyat, qoida tariqasida, o'qituvchining umumiy qobiliyatlari darajasining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Ammo barcha a'lochi talabalar ham yaxshi o'qituvchi bo'la olmaydi, chunki inson faoliyatining har bir turi umumiy qobiliyatlar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan muayyan maxsus qobiliyatlarni talab qiladi.

Pedagogik qobiliyatlar deganda pedagogik faoliyatdagi umumiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, o'qituvchilik mehnati talablariga javob beradigan, uni to'liq o'zlashtirish va yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi shaxsiy fazilatlar tushuniladi [4].

Binobarin, yagona pedagogik qobiliyat yo'q, biroq bir qator fazilatlar mavjud bo'lib, ularning kombinatsiyasi o'qituvchining ishida muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining etakchi fazilatlar - aniq kuzatuvchanlik va diqqatlilik, boy tasavvur, moslashuvchan aql va aniq nutq, tez yo'naltirish va javob berish, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirish va boshqalar.

Har qanday faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun kuzatish zarur. Pedagogik ishda unga mos yo'nalish kasb etadi.

Pedagogik kuzatuv o'ziga xos idrok etish, bolaning ichki dunyosiga kirib borish qobiliyatlarining asosidir; U o'qituvchiga ko'plab faktik materiallarni taqdim etadi, bu esa uning yaxshi diagnostikachi bo'lishiga yordam beradi. Diqqat kuzatish bilan chambarchas bog'liq. Diqqat inson ijodining markazi sifatida ham qaraladi: u irodaning namoyon bo'lishi sifatida inson ongini harakatga keltiradi va tartibga soladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun kuzatuv va e'tibor alohida ahamiyatga ega, chunki ular jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning mumkin bo'lgan tartibsizliklari, tushishlari va shikastlanishlarini oldini olishga imkon beradi. O'qituvchining tasavvuri pedagogik fantaziya, bashorat va bashoratni rivojlantirishga yordam beradi.

O'qituvchining pedagogik tasavvurining o'ziga xos xususiyatlari uning barcha o'quv ishlarining tabiatiga ta'sir qiladi: uning faoliyatini loyihalash, dars mazmuni, faktlarni tanlash, sinfdagi o'quvchilar o'rtasida e'tiborni taqsimlash va boshqalar.

O'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonida kutilmagan holatlar jismoniy tarbiya o'qituvchisidan yuqori darajada rivojlangan tasavvurni talab qiladi, ularsiz ularga o'z vaqtida va to'g'ri javob berish mumkin emas.

Kasbiy bilim va malakalar bilan birgalikda yuqorida qayd etilgan sifatlar pedagogik faoliyatda rivojlanadigan, shuning uchun uning tarkibiy qismlariga mos keladigan, haqiqiy pedagogik qobiliyatlar shakllanadigan materialni tashkil etadi [4].

Shuning uchun ham bunday pedagogik qobiliyatlar tadqiqotchilik, konstruktiv, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlar sifatida ajralib turadi. Ularning xususiyatlari pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham mos keladi.

O'z amaliyotida o'qituvchilar ko'pincha nafaqat pedagogik, balki boshqa qobiliyatlarga ham tayanadilar - musiqiy, texnik, iqtisodiy va hokazo. Bundan tashqari, pedagogik qobiliyatlarni ifodalash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, boshqa qobiliyatlar ham asosiy ishga yordam beradi.

Pedagogik mahoratning xilma-xilligi va ularning boshqa qobiliyatlar bilan o'zaro bog'liqligi etishmayotgan fazilatlarni qoplash imkoniyatini kengaytiradi va o'qituvchi ishining individual uslubini shakllantirishga yordam beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir o'qituvchining o'qituvchilik qobiliyati bir xil darajada rivojlangan emas. Amalda, ko'pincha bitta yoki ikkita sifat eng ko'p namoyon bo'ladi, o'qituvchining mahoratini aniqlaydi. Bolalarning jismoniy tarbiyasiga va o'z kasbiga doimiy qiziqish ham pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u asosan o'qituvchining mahoratini belgilaydi.

O'z navbatida, qobiliyatlar qiziqishlarni boshqarishi mumkin. Ular bir-birini qo'llab-quvvatlayotganga o'xshaydi. Pedagogik qiziqishlar va qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik o'qituvchi qiziqishining ustun ahamiyatini tobora ko'proq ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'z kasbiga bo'lgan qiziqish va muhabbat mehnatdan tug'iladi, chunki siz bor kuchingizni mehnatga safarbar qilsangiz, u sizga yoqadi.

Har qanday qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishning yana bir muhim sharti mehnatsevarlikdir. Ushbu sohada ishlash qobiliyati rivojlangan kasbga bo'lgan barqaror manfaatlar va moyilliklarning organik birligi shaxsiy chaqiruvning mohiyatini belgilaydi.

XULOSA. Kompetentli o'qituvchilar o'z faoliyatida fidoyiligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi uchun mehribonlik, sezgirlik, adolatparvarlik, qattiqqo'llik, to'g'rilik, qat'iyat kabi xarakter xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ammo insonning o'ziga xosligini individual xarakter xususiyatlarida emas, balki ularning murakkab o'zaro ta'sirida izlash kerak.

Xarakter qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchilik ishining muvaffaqiyati bilim va ko'nikmalar bilan belgilanadi, ularning darajasi asosan o'qituvchining shaxsiy fazilatlari bilan belgilanadi.

Shaxs, birinchi navbatda, uning faoliyatining motivlari nimada namoyon bo'ladi? Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy ahamiyatli motivlari jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqish, bu sohadagi pedagogik faoliyatga moyillik, uni doimiy ravishda yaxshilashga intilish, bolalarga bo'lgan muhabbat, o'quvchilar jismoniy tarbiyasining katta ijtimoiy ahamiyatiga chuqur ishonch, ularga yuklangan vazifa uchun burch va mas'uliyat hissida namoyon bo'ladi.

Ushbu motivlarning kombinatsiyasi shaxsning potentsial imkoniyatlarini faollashtiradi, birlashtiradi va o'qituvchining pedagogik qobiliyatini, diqqatini, xarakterini va mahoratini shakllantirishga yo'naltiradi.

Binobarin, pedagogik mahoratning o'zini ilmiy bilim va uslubiy san'atning birligiga asoslangan shaxsning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat motivlarining etakchi ahamiyati sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Motivatsion impulsning barcha turlari (qiziqishlar, e'tiqodlar, maqsadlar, iroda) qobiliyatlarni shakllantirishning eng muhim omillari hisoblanadi.

Адабиётлар рўйхати

1. Быков, Н. Д. Инновационные преобразования в сфере физической культуры, спорта и туризма / Н. Д. Быков, И. Г. Лебединская, Г. В. Хвалебо // Взгляд на современные технологические подходы и их компоненты в преподавании предмета «Физическая культура»: сб. науч. тр. XIII Международ. науч.-практ. конф. / под ред. Ю. И. Евсеева и др. – Ростов н/Д., 2011. – Т. 2. – С. 316–331.
2. Психология физической культуры и спорта: учеб. для студ. высш. учеб. заведений / А. В. Родионов и др.; под ред. А. В. Родионова. – М.: Академия, 2010. – 366 с.
3. Хало, П. В. Использование психотехник для развития сверхнормативных компетенций / П. В. Хало, О. Г. Бахтияров, В. П. Омельченко // Современные проблемы многоуровневого образования: сб. науч. тр. VI Международ. науч.-метод. симпозиум. – Ростов н/Д.: Изд-во ДГТУ, 2011. – С. 118–126.
4. Холодов, Ж. К. Теория и методика физического воспитания и спорта: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – М.: Академия, 2000. – 476 с.
5. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии // Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития, 2020. С. 117-120.
6. Абдуллаев Кобилжон Файзуллаевич Воспитание двигательных качеств подростков в семье // Вестник науки и образования. 2020. №9-2 (87).
7. Гревцева Г. Я., Абдуллаев К. Ф. ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-ФИЗИЧЕСКОМУ РАЗВИТИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ // Экономика и социум. 2023. №5-1 (108).

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIYOTIDA DOSTONLARNING O'RINI.

Qo'shayev Ilhom Axtamovich

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya

Kirish: Maqolada O'rta osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotida adabiy-musiqiy dostonlar muhim o'rin tutishi va ularni avloddan- avlodga o'tib kelgan so'z, she'r, ovoz, soz va tomosha san'atini o'zida mujassamlashtiruvchi bebaho badiiy namunalar hamda dostonlarning har bir qirrasi bir butunicha asrlar davomida insonlar ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan qadimiy sharqona san'at ekanligi haqidagi masalalar keng yoritibberilgan.

Maqsad: O'zbekistondagi turli viloyatlarda rivojlangan dostonlar hamda kasbiy musiqaning janr va ichki uslublari haqidagi tuhsunchalarga ega bo'lish va boshqalar bilan fikrlashish.

Materiallar va metodlar: XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid turli xil ashyoviy manbaalar eng ishonarli dalil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan yangiliklar orqali vatanimizning hozirgi zamon jonli musiqa amaliyotida sof cholg'u kuylaridan bo'lak musiqachilarni bahramad dilish.

Muhokama va natijalar: Har qanday kasb hunarmandchiligida bo'lgani kabi, musiqachilikda ham mutaxassis o'z kasbiy sirlarini, to'plagan tajribasini keyingi avlod vakillariga avaylab-asrab etkazishini muqaddas vazifalaridan biri hamda burchi deb bilgan. Va shu ishni uzluksiz amalga oshirishga harakat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ilgari asosan rus va chet el musiqasiga asoslangan dastur va darsliklar o'rniga yangi milliy musiqaga asoslangan DTS lari dastur va darsliklar ishlab chiqilganligi musiqa namunalari ham ma'lum miqdorda ,musiqa materiali hisoblangan o'zbek kuy qo'shiqlari bilan dastur va darsliklarida berilgan chet el musiqa namunalari ham o'quvchilar ongiga singdirish masalasi turibdi.Milliy va xorijiy musiqa asarlarining o'ziga xos farqli va umumiy xususiyatlarni tahlil qilish natijasida ularning ayrim namunalari asosida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab ko'rsatish bunday xilma-xil asarlarni tushunib idrok qilishni yaxshilaydi

Kalit so'zlar: Qo'biz , do'mbira ,xalfalar san'ati, jirov, doston noma , dutor, Ozarbayjon tori, bulamon , garmon, ochiq ovozda doston kuylash, yopiq ovozda kuylash baxshichilik doston festivali, doston maktablari, doston pedagogikasi, ustoz-shogird an'anasi.

МЕСТО ПОСЛАНИЙ В УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Введение: В статье литературно-музыкальный эпос играет важную роль в устном творчестве народов Средней Азии, а также бесценное искусство,

воплощающее в себе искусство речи, поэзии, голоса, музыки и зрелища, передающееся из поколения в поколение. широко разъяснены вопросы о том, что каждый край примеров представляет собой древнее восточное искусство, на протяжении веков удовлетворяющее духовные потребности людей.

Цель: Иметь представление о фольклоре, развивающемся в различных регионах Узбекистана, а также о жанрах и внутренних стилях профессиональной музыки и обмен мнениями с другими.

Материалы и методы: Наиболее убедительным доказательством служат различные вещественные источники, относящиеся к музыкальной культуре, найденные при археологических раскопках первой половины XX века. Наслаждайтесь чисто инструментальными мелодиями в современной практике живой музыки нашей родины через новостей, представленные в этой статье.

Обсуждение и результаты: Как и в любом профессиональном ремесле, в музыкальном деле специалист считал одной из своих священных обязанностей и бережно передавать свои профессиональные секреты, накопленный опыт следующему поколению. Осуществлять его непрерывно.

Заключени: В заключение можно сказать, что после обретения нашей республикой независимости, ранее основанных в основном на русской и зарубежной музыке, были разработаны новые программы и учебники по национальной музыке. В результате анализа специфических отличительных и общих чертах произведений национальной и зарубежной музыки на основе отдельных их образцов выявить их отличительные черты и улучшает восприятие.

Ключевые слова: Кобыз , домбра, искусство халфов, жиров , эпос нома, дутор, Азербайджанский Тор , буламон, гармон, пение эпоса открытым голосом, пение закрытым голосом бахши, фестиваль эпоса, эпос школы, эпическая педагогика.

THE PLACE OF EPISTLES IN UZBEKISTAN ORAL CREATION

Annotation

Introduction: The article examines the musical and stylistic features of Samarkand and Bukhara, the oldest cultural centers of Central Asia, including the forms, genres and internal styles of folklore and professional creative layers in the musical heritage of the inhabitants of the Zarafshan Valley, their differences from each other, great authority among representatives of musical art-composers, hafiz (singers) and sozanda (musicians), musicologists, and issues related to their situation are widely covered.

Purpose: To have an idea about folklore developing in various regions of Uzbekistan, as well as about genres and internal styles of professional music and to exchange opinions with others.

Materials and methods: The most convincing evidence is provided by various material sources related to musical culture found during archaeological excavations in

the first half of the 20th century. Enjoy purely instrumental melodies in the modern practice of live music of our homeland through the news presented in this article.

Discussion and results: As in any professional craft, in the music business, the specialist considered one of his sacred duties and carefully passed on his professional secrets and accumulated experience to the next generation. To carry it out continuously.

In conclusion, it can be said that after our republic gained independence, previously based mainly on Russian and foreign music, new programs and textbooks on national music were developed. As a result of the analysis of the specific distinctive and common features of the works of national and foreign music on the basis of their individual samples to identify their distinctive features and improves perception.

Keywords: Kobyz , dombra, the art of halves, fats, the epic of noma, dutor, Azerbaijani Tor, bulamon, harmon, singing the epic with an open voice, singing with a closed voice bakhshi, epic festival, school epic, epic pedagogy.

O'rta osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotida adabiy-musiqiy dostonlar muhim o'rin tutadi. Ular avloddan- avlodga o'tib kelgan so'z, she'r, ovoz, soz va tomosha san'atini o'zida mujassamlashtiruvchi bebaho badiiy namunalaridir. Dostonlarning har bir qirradi bir butunicha asrlar davomida kishilar ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan qadimiy sharqona san'at. O'zbek milliy dostonchiligi esa ushbu serko'lam jabhadagi umumturkiy madaniyatning yorqin va o'ziga xos bir bo'lagidir. Zero qadimiy va barqaror dostonchilik an'alariga ega bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy bisotida mazmunan barkamol, shaklan va usluban xilma-xil asarlar, har birida olam-olam badiiy qadriyatlar, ijodiy boyliklar milliy meros tarzida e'zozlanib, salmoqli adabiy-musiqiy qatlamni tashkil etadi.

Ota-bobolarimiz ularni yaratish, so'zlash, kuylash va tinglash bilan uzoq asrlar davomida ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, kelajakka ishonch ruhi bilan yashab mehnat qilib kelganlar. Shuningdek, zamonalar silsilasini saqlab, dostonchilik an'alarini davom ettirgan holda bugungi kunning ma'naviy va ma'rifiy omili bo'lib maydonga chiqishini ta'minlaganlar. Ayniqsa mustaqillik yillarida yangicha tafakkurimiz qatori juda qadimiy chashmalardan ozuqa oluvchi san'at turlari hech bir zamonda bugungidek e'zoz va e'tibor topgan emas.

Haqiqatan ham dostonlar va ularning qo'shiqlarida xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan muhim masalalar ko'tarilib, haqqoniy yoki ertaknamo voqealar, afsona va rivoyatlar tarzida shoir va baxshilar tomonidan to'qib o'zlashtirilgan, qayta ishlangan va kuylab kelingan. Ular ilhom bilan insonlar qalb torini eng nozik rishtalarini qo'zg'atgan, ta'sir qilgan va ruhiy ozuqa ulashib kelgan.

Qadimiy dostonchilik an'alari muzey yoki qo'riqxonada saqlanadigan nusxalardan farqli o'laroq jonli meros bo'lib, endilikda unga madaniy jamoatchiligi qiziqishi tobora ortib bormoqda. YUNESKO dasturi asosida xalqaro miqyosda keng nishonlanishi, unga bag'ishlangan tantanalarda va keyin ham chet ellarda bildirilgan munosabat, e'tibor, fikrlar va istaklar, «Alpomish» va boshqa dostonlar ota-

bobolarimiz ma'naviyati yuksalishida naqadar ahamiyati katta ekanligini butun dunyoga namoyish etdi. Bu borada Termizdagi tadbirda Yurtboshimiz «Bugun biz ming yillar davomida bu dostonni kuylab, gavharday asrab-avaylab, boyitib kelgan, nomlari bizga noma'lum bo'lgan yuzlab xalq baxshilarining iste'dodi qarshisida ta'zim qilamiz.

Agar iloji bo'lsa, men ana shu insonlarning nomlarini ma'naviyatimiz tarixiga oltin harflar bilan yozgan bo'lur edim. Baxshi-shoirilar o'z xalqining biyron tilidir. Ular yurtimizda doimo «Baxshili el yaxshili el» deb ulug'langan. Bugun biz Yodgor baxshi va Tilla kampir. Jossoq shoir va Amin baxshi, Sherna baxshi va Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh o'g'li va Po'ltan shoir, Islom shoir va Abdulla shoir, Sayidmurod Panoh va Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Berdi baxshi va Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir shoir va Shoberdi kabi dostonchilarning nomini ehtirom bilan tilga olamiz. Ularning noyob qobiliyati, yuksak mahorati tufayli «Alpomish» bor salobati va Nafo- sati bilan yashab kelmoqda», deb baxshilar san'ati va iste'dodiga yuksak baho berganlar.

«O'zbekiston xalq baxshisi» faxriy unvoni ta'sis etilishi esa san'atkorlikning ushbu jabhasiga berilayotgan e'tibordan dalolat deb bilish mumkin. Turkiy xalqlar dostonchiligi juda qadim, boy, murakkab va ayni chog'da o'zaro mushtarak adabiy-musiqiy voqelik ekanligi adabiyotshunoslik hamda san'atshunoslik fanlarida allaqachon e'tirof etilgan. Dostonchilikning tarixiy va nazariy masalalariga oid tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular qatorida birinchi navbatda dostonlarni filologik jihatdan o'rganishga qaratilgan. Bular N.Soburov, M.Murodov, O.Madayev, S.Ro'zimboyevlarning asarlarini qayd qilish o'rinli. Ayniqsa Xodi Zarif o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti o'lmas namunalarini Yig'ishda qatag'on yillarining suronli tahdidlariga qaramasdan, hayoti xavf ostida turgan bir paytda jonbozlik ko'rsatdi. Ota-bobolar buyuk merosini o'z so'zi va ovozi bilan sobiq ittifoqda, chet ellarda tanilishida tinmasdan mehnat qildi va qator shogirdlar etishtirdi. U dostonchilik fanining asoschisi sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama rivojlantirgan holda tarixiy, etnografik, nazariy va amaliy jihatdan puxta maktab yaratgan atoqli olimdir.

Muxtasar qilib aytganda filolog olimlar tomonidan dostonlarning ko'pchiligi mashhur ijrochilar og'zidan yozib olingan, aksariyatining matnlari qiyosiy, xalqning tarixi va psixologiyasiga oid jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan.

Shunday bo'lsada, dostonchilikni atroflicha, to'la-to'kis, mufassal o'rganishda hali ko'tarilmagan yoki etarlicha yoritilmagan dolzarb masalalar talaygina. Bular qatorida avvalambor dostonlarning mafkuraviy jihatdan dolzarbligi. Qahramonlar obrazi masalasi nuqtayi nazardan qaraganda ular (Alpomish, Go'ro'g'li va boshqa dostonlarning obrazlari) sinovlardan o'tgan bo'lib, hozirgi zamon qahramoni badiiy qiyofasini yaratishda juda ham qo'l keladi.

Dostonlar sinkretik san'at bo'lib, bunda so'z, soz, tomosha va boshqa unsurlar mushtarakdir. Uning so'z jihati ko'p o'rganilgan, ammo musiqiy omil kam tadqiq qilingan. Vaholanki, dostonlarning musiqasi umumiy va yaxlit tizim ichidagi o'zicha yana bir alohida tizim hisoblanadi. Ularning aynan musiqiy namunalari zamonlar

osha eskirmay kelayotgan qadriyatdir. Kuy-ohangning o'ziga xos tabiati ma'naviy hayotbaxsh kuchga ega ozuqa sifatida jonli va qudratli an'ana bo'lib kelayapti. Ushbu musiqiy an'analarning tub ildizlari, ularning shamanlik bilan tarixiy bog'liqliklari, nomalarning shakl, parda va usullari, ovoz va soz ijrochiligi, taraqqiy etish jarayoni, diniy-axloqiy, g'oyaviy-mafkuraviy va ayniqsa yoshlarda

vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga tegishli masalalar yanada chuqur o'rganilishi lozim. Nazarimizda, dostonlarning musiqiy asoslarini o'rganish borasida birmuncha ish qilingan.

Shu jumladan tadqiqodchi-olimlar I.Akbarov va Yu.Kon «O'zbek xalq muzikasi»ning IX jildiga yozgan so'zboshida Xorazm doston qo'shiqlari ilmiy nazariy tomondan qisqacha tahlil etilgan. Maqolada doston nomalarini o'zbek musiqasining boshqa turlarida deyarli ko'zga tashlanmaydigan jihatlari qo'sh ladlar, gipofrigiy (lokriy) tovushqatorlarining uchrashi va boshqa o'ziga xosliklari muxtasar ta'riflanadi. Musiqashunos A.Jabborov o'zining «Uzbekskiy dastan» (epos) maqolasida dostonga umumiy ta'rif berib, uni og'zaki va yozma adabiy ijodiyot namunalari ekanligi, dostonchilikda baxshi, shoirlarning vazifalari va tutgan o'rni, dostonlarning shartli ravishda bahodirlik, qahramonlik va ishqiy romantik turlarga tasniflanishini aytib, ulardan ba'zi parchalarni misol sifatida keltirgan. Ammo bu maqolada dostonchilik musiqiy uslublarining o'ziga xos jihatlarga e'tibor berilmagan.

M.Yusupov «O'zbek xalq muzikasi»ning IX jildida Xorazm doston qo'shiqlarining 49 tasini notaga olib alohida qo'shiqlar sifatida e'lon qilgan. Lekin ularning turkumlanish tartibi, dostonlardagi o'rni hamda boshqa maxsus jihatlarga e'tibor qaratmagan.

O.Halimov «Qoraqalpoq namalari» nomli «O'zbek xalq muzikasi»ning VIII jildida nomalarning 46 tasini notaga tushirgan. Ularning ko'pchiligi o'z asl nomlari bilan berilgan bo'lsa, boshqalari she'r radiflari bilan atalgan va kuylarning turkumlanishi, dostonlarda qo'llaniladigan o'rinlarini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Qoraqalpoq xalq baxshisi Angsatbay Xayratdinov to'plab notaga olgan «Qobyz namalari» nomli kitobida jirov nomalaridan 50 tasini jamlab notaga olgan va ular she'r matnisiz kuy holida berilgan.

T.Adambayeva tahriri ostida M.Jiyemuratov notalashtirgan «Jirov namalari» kitobida jirovlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilib, turli davrdagi ijrochilaridan yozib olingan nomalar kiritilgan. Bunda nomalar to'rt qismga taqsimlanib, ularning birinchisi termalar va to'lg'ovlar; ikkinchisi atoqli jirovlar nomi bilan bog'liq nomalar; uchinchisi to'liq shakllangan nomalar; to'rtinchisi kuy cholg'ular shaklida bayon etilgan. Bunda qaysi noma qanday dostondan ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu kitobning A. Xayratdinov to'plagan «Qobyz namalari» kitobidan farqi, jirov nomalarini deyarli barchasi so'z matni bilan berilganligidadir.

K.Olimboyeva 1949 yili Bola baxshidan «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonining nasriy matnini tushirib qoldirgan holda 15 ta kuyni alohida-alohida notaga olgan. Yirik tadqiqotchi olim F.Karomatovning «Uzbekskaya dombrovaya muzyka» kitobida asosan do'mbira cholg'usining imkoniyatlari, tovush ko'lami,

ikkala torning qo'sh sadoligi, «baxshi kuy» va «cho'poni kuy»larning qo'llanilishi to'g'risida daslabki ilmiy-qiyosiy ma'lumotlar keltirilgan va ilk bor notaga tushirilgan. Shuningdek, «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi munosabati bilan shu dostonning nazmiy, nasriy va nota matnlari bilan nashr qilinishi ham ustozning tinimsiz mehnati mahsulidir.

Qisqasi, yuqorida nomlari zikr etilgan adabiyotlarda o'zbek baxshilik san'atining musiqiy masalalariga bag'ishlangan daslabki muhim qadamlar qo'yilgan, ilk ma'lumot, tushuncha va izohlar berilgan, ya'ni bo'lg'usi ilmiy tadqiqotlarga zamin hozirlangan.

Dostonchilikning asl va jonli manbalari bo'lgan baxshilar ijodi muallif tomonidan yaqindan kuzatildi. Ayniqsa dostonlar va ularning qo'shiq-nomalarini o'z qalbida asrab-avaylagan xassos baxshi-shoirlar bilan muloqotda bo'lib, ulardan ba'zi doston nomlari nomlarini, ijodkorlari va yaratilishi haqidagi rivoyatlar, usullari va lad asoslari, shakllari, turkumlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar to'plandi. Shu bilan birga baxshilarning jo'rnavoz sozlari ularning tabiati, tovushqatori, parda va sozlanishi, ansambl tarkibi va undagi cholg'ular xususiyati kabi jihatlari ham o'rganildi.

O'lkamizdagi dostonchilik maktablarining yirik vakillari Bola baxshi Kurbonnazar Abdullayev, Tursun baxshi Jumaniyozov, Qaxxor Baxshi Rahimov, Qora baxshi Umirov, Ahmad baxshi Yangaboyev, Abdi baxshi Otageldiyev, Ro'zimbek baxshi Murodov, Otaxon baxshi Matyoqubov, Norbek Abdulla baxshi Qurbonnazarov, Matyoqub baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov va boshqa baxshilar bilan bevosita muloqotlar natijasida «Avazxon», «Baziryon», «Xirmondali», «Oshiq G'arib va Shohsanam» va «Oshiq Mahmud» dostonlarining to'liq matni va nota misollari bilan to'plam holida yig'ilganligi bu borada qilingan ishlarning kichik bir hosilasidir.

Dostonlar barcha davrlarda ham kitobdan o'qilishiga qaraganda baxshining bevosita ijrosida eshitilganida tinglovchini o'ziga ko'proq rom etgan. Baxshi bilan tinglovchi o'rtasida jonli muloqot paydo bo'lgan. Ushbu jarayonda muxlis doston voqealari ruhi bilan yashagan, mehnat qilgan, qahramonlarini tanigan va ezgulikka etishish uchun intilib kurashib kelgan.

Dostonlardagi badiiy g'oyalar ularning asosiy ma'no va mazmunini tashkil etadi. Ular hayotdan olinganligi va badiiy talqinlar asosida bayon etilganligidan tinglovchida muayyan taassurot uyg'otadi. Doston qahramonlarini sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asnoda ro'y beradi. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakatga keltirishda dostonlarning nasriy, nazmiy va musiqiy matnlarining mazmuni va ahamiyati beqiyosdir.

Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib etishda, milliy qadriyat va urf-odatlarimizni xalqning ongi va qalbiga singdirishda dostonlar muhim vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Nomalar nomini aniqlashda dostonlar matnlariga tuzatish kiritishda o'zlarining holisona yordamlarini ayamagan Safarboy Ro'zimboyev, Matyoqub

Abdullayev, Ochilbek Matchonov, Otaxon Matyoqubov, Qalandar baxshi Normetov va boshqa do'stlarga samimiy minnatdorchilik izhor etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018 yil 1 noyabrdagi PQ-3990-son qarori.
2. "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi 946-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'zbekiston ovozi 2019-yil, 8- aprel. № 28-29 (32. 519).
4. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage Academicia Globe: Inderscience Research 2022–T.3 №.01–C.13-15.
5. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании // Science and Education. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.
6. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст. 59-62,
7. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021
8. IA.Kushayev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
9. Qo'shayev I.A. "Baxshichilik festivallarining musiqiy ta'limdagi o'rni" MUĞALLIM XƏM YZLIKSI3 BILIMLENĐIRIY İlimiy-metodikaalyk jurnal 2023 5/3 san Nəkis noyabr B.233-238.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Kushayev Ilhom Axtamovich, o'qituvchi, [Кушаев Илхом Ахтамович, преподаватель, [Ilhom A.Kushayev, teacher, manzil: O'zbekiston, 117036, Buxoro, Sherbudin ko'chasi, 2-muyilish 4-xoha [адрес: Узбекистан, 117036, Бухара, улица Шербудин проезд-2. дом-4], [address: Uzbekistan, 117036, Bukhara, Sherbudin street passage-2.house-4.]; ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9092-5020>; kushaev.1968@gmail.com

OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOLARI

Nazarov Furkatjon Abdulfayzovich

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi O'quv jarayonini tashshillashtirish va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, t.f.f.d.(PhD), dotsent, podpolkovnik.

Xatamova Gulbahor Abdumo'min qizi

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi tillar kafedrasida katta oqituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari keltirilgan. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmagani, ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar echimiga qaratilmagani, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagani, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarga sun'iy to'siqlar mavjudligi Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashda asosiy muammolardan biridir. Ushbu muammolarni echish usullari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Oliy harbiy ta'lim muassasalari (OHTM), ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar, fan, ta'lim, innovatsiya, "Elektron OHTM", "OHTM 3.0".

Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, fan va tadqiqotlar yo'nalishida tegishli ixtirolarni amalga oshirish va yangiliklarni kashf etish, ratsional va pragmatik tarzda tashkil etilgan o'ziga xos metodika asosida olib boriladigan ijodiy faoliyat birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi, uning iqtisodiyoti, jamiyat va davlat rivojlanishi uchun zarur bo'lgan unsurlardan biridir. Ushbu yo'nalishda o'ziga xos mashaqqatli yo'lni bosib o'tishga qodir bo'lgan talabgorgina ilmiy yutuqlar sohasida g'alabaga erishadi hamda fanga yangilik olib keladi. Bu aksiomadir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Barchamizga ayonki islohot – bu yangilanish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi" deb ta'kidlab o'tadilar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashgacha bo'lgan jarayonlar davrida bo'lg'usi talabgor yoki tadqiqotchi mushkul bir vaziyatga tushadi, ya'ni "qaysi fanni tanlash", "qaysi muammoni olib chiqish", "ushbu muammoni echa olish mumkinmi", "o'zini o'zi izlash", "o'zligini topish" kabi savollar qurshovida qoladi. Bu davrda tadqiqotchi hali biror-bir mavzuni tanlashdan, uni biror muammo bilan bog'lashdan uzoq bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar va hayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ilm sohasiga birinchi qadam tashlanayotganida tegishli mavzuni topib, uni biror muammo bilan bog'lay olgan tadqiqotchi deyarli uchramaydi. Demak, bu holatda hayotiy zarurat sifatida namoyon bo'ladigan, mavzu tanlashda ilm sohasidan, shu yo'nalishga oid

izlanishlar va muammolardan yaxshi xabardor bo'lgan olimlar, amaliyotchi yoki mutaxassislarning yordami, maslahati zarur bo'ladi. Bunday shaxs mavzu tanlashga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillardan xabardor bo'lgani uchun ham "ilmiy rahbar", "ilmiy maslahatchi", tadqiqotni tizimli ravishda olib borishni o'rgatuvchi "ustoz" deb ataladi. Uning ratsional va pragmatik fikr-mulohazalari inson aql-idroki va real hayotiy talablari bilan bog'liqlikda, tegishli metodika va metodlar bilan boyitilgan, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiy faoliyatni samarali o'tkazishga yordam beradigan usullar va mexanizmlar majmuidan iborat bo'ladi va xulosada kutilgan natijalarni beradi.

Hech kim inkor eta olmaydiki, ilmiy izlanishlar sohasi serqirra, qarama-qarshiliklarga boy, o'ta murakkab va ziddiyatli bahs-munozaralarga boy bo'lgan jarayondir. Bu ishlarda yo'lchi yulduz bo'la oladigan, to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan, vujudga kelishi mumkin bo'lgan savollarga tegishli javob bera oladigan uslubiy ishlanma talabgor qo'lida bo'lsa bo'lg'usi ilmiy izlanishlar tizimli ravishda, o'rnatilgan tartibda, mazmunan boy hamda talablar doirasida bajarilishiga shak-shubha bo'lmaydi. Vaholanki, tadqiqotchi ichki (analitik, sensitiv-kognitiv, ma'naviy, aqliy, ruhiy) va tashqi (obyektiv olam, ijtimoiy munosabatlar, sotsium, ijobiy xorijiy tajriba) ta'sirlari ostida izlanish olib boradi, mazkur ta'sirlarni esa ilmiy maqsadga yo'naltirish oson ish emas.

Ilmiy tadqiqot o'tkazish uslubiyati (metodika)ni egallagan, ilmiy izlanishlar yo'nalishlaridan yaxshi xabardor va ularni amaliyotda qo'llay oladigan shaxs ko'zlagan maqsadiga erishadi, ilm-fan sohasida biror e'tiborli g'oya yoki jo'yali fikr ayta oladi. Ilmiy tadqiqot o'tkazish metodikasini yaratish borasida katta tajriba to'plangan, har bir tadqiqot ishiga nimadir qo'sha olgan shaxslar tajribasi juda katta ahamiyatga ega. Ushbu tajribani to'plash, unga yaxlitlik, tizimlilik, ma'lum bir shakl berish ehtiyoji har doim ham mavjud muammodir. Mazkur qo'llanma ana shunday ehtiyoj mahsulidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqot, ya'ni ilmiy izlanishlar o'tkazishning asosiy maqsadi obyekt (predmet)ning real holatini ideal holatga ko'tarish hisoblanadi.

Mazkur maqsadga etishishning samarali usul va uslublarini, yo'llarini, mexanizmlarini topish va keng jamoatchilik e'tiboriga havola etish har bir olimning birinchi galdagi vazifasidir. Mualliflar yosh va iqtidorli tadqiqotchilarni o'z ilmiy burchlarini obyektiv bajarishga, buning uchun esa ilm-fanda shakllangan va hayot sinovidan o'tgan usul va uslublarga tayangan holda ijodiy (kreativ) pozitsiyada turishga da'vat etadilar. Ilmiy tadqiqot sohasidagi mavjud tajribalarni, usullarini umumlashtirish orqali yosh tadqiqotchilarda ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Har bir kitobxon ushbu qo'llanma bilan tanishganidan keyin o'zining ustuvor maqsadlarni yana bir bor ko'rib chiqib, ilmiy izlanishlarni to'g'ri va muqobil bo'lgan tizim asosida amalga oshirish, bu maqsadlarda vaqtni samarali taqsimlash va undan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, shaxsiy hayot va kundalik ijodga ijobiy va zarur o'zgarishlarni olib kirs, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari (OHTM)da ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashda tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil (aksariyat hollarda ikki yil) bo'lgan oliy ta'lim olgan magistratura mutaxassisligiga ega kadrlar tanlab olinib, oliy ta'limdan keyingi ta'lim (tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik, stajyor-tadqiqotchilik)da ilmiy faoliyat olib borishiga ruxsat etiladi hamda ilmiy mavzusi rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3365-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son qarori asosida ishlab chiqilgan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida NIZOM" ijrosini ta'minlash maqsadida ilmiy izlanishlar olib borishga katta ahamiyat berilmoqda. Unga ko'ra, tegishli oliy ma'lumoti, ilmiy va kasbiy tayyorgarligi bo'lgan, ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega pedagoglar va ilmiy pedagoglar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi hamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi ko'rsatib o'tilgan.

Respublikamizda ko'pgina OHTMning ixtisoslashtirilgan kafedralari professor-o'qituvchilar lavozimlariga tegishli sohada kamida 3 yillik amaliy xizmat stajiga yoxud tegishli mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega shaxslar tayinlanadi. Bundan tashqari, tegishli sohalarda ilmiy, pedagogik yoki amaliy tajribaga ega bo'lgan shaxslar Oliy harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar va o'quv-yordamchi tarkibi lavozimlariga tayinlanishlari mumkin. Oliy harbiy ta'lim muassasalari magistrining kasbiy faoliyat sohasi va turi, bilim, malaka va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar, shuningdek, o'quv dasturlarining tuzilishi va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmlari va ta'lim sifatini nazorat qilish muayyan magistratura mutaxassisligining malaka talablari orqali belgilanadi. Ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklarini tamomlayotgan bitiruvchilariga diplom bilan birga vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan namunadagi ko'krak nishoni ham beriladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida belgilangan tartibda fakultet, kafedra, markaz, o'quv va ilmiy laboratoriya, texnopark hamda boshqa tarkibiy bo'linmalarni tashkil etish ta'lim muassasasi tomonidan, ta'lim jarayoni bilan bog'liq tarkibiy bo'linmalari faoliyati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarini davlat ta'lim standartlariga va o'quv dasturlariga muvofiqligi jihatidan attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Oliy harbiy ta'lim sohasidagi ta'lim xizmatlari ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish hamda asosiy o'quv dasturlarida nazarda tutilmagan yo'nalishlar va kurslar bo'yicha to'lov-shartnoma asosida, asosiy o'quv dasturlari bajarilishiga to'sqinlik qilinmagan holda olib borilishi mumkin.

Bugungi kunda OHTM ilmiy va ilmiy pedagog xodimlari boshqa Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilariga nisbatan, xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasining pastligi sababli, ularning kasbiy mahorati hozirgi davr talablaridan ortda qolayotgani aniqlandi. Bundan tashqari, o'quv adabiyotlari etishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermasligi ilmiy izlanishlar davomida aniqlandi. Shuningdek, o'quv adabiyotlarining sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari etarli darajada tashkil etilmagani, OHTMda fan olimpiadalarini o'tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagani, olimpiadalar g'oliblari bilan tizimli ravishda ishlash yo'lga qo'yilmagani, iqtidorli yoshlar orasidan talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emasligi o'rganildi.

Hozirgi vaqtda Oliy harbiy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi, yoshlarning ilmiy izlanishlar olib borishini qo'llab-quvvatlash ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shakllantirishning dolzarb masalalaridan biridir. Sohada ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari kelib chiqib tashkil etilmagani, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo'lga qo'yilmagani, innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi etarli emasligi olib borilgan tahlillar natijasida aniqlandi.

OHTMda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmagani, ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar echimiga qaratilmagani, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagani, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarga sun'iy to'siqlar mavjudligi OHTMda ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashda asosiy muammolardan biridir.

Ushbu muammolarning oldini olish uchun ilmiy izlanishlar olib borayotgan pedagog kadrlarga keng imkoniyatlar yaratish, darsdan tashqari holatlarda behuda ishlarga jalb qilmaslik, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishiga vaqt ajratish va imkoniyat yaratib berish zaruriy echimlardan hisoblanadi. Ilmiy izlanuvchilarning nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi va ularga berilgan iqtiboslar sonini oshirish, ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshini ko'proq yoshlar tashkil etishiga erishish ilmiy kadrlarni tayyorlashdagi muammolarning oldini oladi.

Ko'pgina OHTMda talabalar turar joylari, kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi. Ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan. OHTMning zamonaviy

o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlanish darajasi etarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv laboratoriya uskunalarning salmog'i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o'quv jarayoni laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan etarlicha ta'minlanmagan. OHTM moliyaviy xarajatlarning asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni yangilashga, bino va inshootlarni ta'mirlashga etarlicha mablag' yo'naltirilmagani ilmiy faoliyatning ortda qolayotganiga sabab bo'lmoqda.

OHTM milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish bugungi kun talablaridan biridir.

OHTMda boshqaruv tizimi, o'quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirish, turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechishni ta'minlovchi "Elektron OHTM" platformasiga joriy qilishni yo'lga qo'yish muhim omillardan hisoblanadi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar (leksiyaning boshqa o'quv xonasidan yoki oliy ta'lim muassasasidan onlayn o'zlashtirish) texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish tavsiya etiladi. Ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "OHTM 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, texnopark, farsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish, ularni sohalar rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy- amaliy muassasa darajasiga olib chiqish sohada ilmiy izlanuvchilarni sifatini va yoshlarni ilmiy ishlarga qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. <https://staff.ttiame.uz/storage/users/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-oktabrdagi "Oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 655-son Qaroriga asosan, "Oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/docs/5690814>.
3. Sh.S.Sharipov, K.N.Davlatov, G.S.Nasriddinova Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. Magistratura mutaxassisligi: 5A142001 - Mehnat ta'limi metodikasi. Toshkent – 2007. 148-b. <https://e-library.namdu.uz/>.

JISMONIY TARBIYA VOSITALARINING BOLA ORGANIZMINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.

Idiyev Rustam Dilmurodovich

BDPI Jismoniy madaniyat

fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada bolalarni ham aqlan, ham jismonan tarbiyalashda, har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda, jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillarning ijobiy ta'sir natijalari asoslab berilgan. Jismoniy tarbiya vositalarining bolalar tana a'zolarini chiniqtirishda, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy yuklamalar berish va toliqishlarining oldini olishga qaratilgan tabiiy omillar orqali bolada ro'y beradigan o'zgarishlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Vosita, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, rezerv, jismoniy mashqlar, sog'lomlashtiruvchi kuchlar, gigiyenik omillar, texnika, shaxs, qobiliyatlar, yuklama, toliqish, chiniqish, ko'nikma.

ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ОРГАНИЗМА РЕБЕНКА.

Идиев Рустам Дильмуродович

БДПИ Физическая культура

студентка 2 курса факультета

Аннотация: В данной статье объяснены результаты положительного влияния физических упражнений, целебных сил природы и гигиенических факторов на воспитание детей как умственное, так и физическое, на всестороннее развитие, физическое развитие и укрепление их здоровья. Показаны изменения, происходящие в ребенке под действием естественных факторов, направленные на предотвращение истощения средств физического воспитания при тренировке частей тела детей с учетом их возрастных особенностей.

Ключевые слова: Средства, физическая подготовка, физические качества, резерв, физические упражнения, целебные силы, гигиенические факторы, техника, личность, способности, нагрузка, утомление, тренировка, мастерство.

THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF THE CHILD'S BODY.

Idiyev Rustam Dilmurodovich

BDPI Physical culture

2nd stage student of the faculty

Abstract: In this article, the results of positive effects of physical exercises, health-giving forces of nature, and hygienic factors in raising children both mentally and physically, in all-round development, physical development and strengthening of their health are explained. The changes that take place in the child through natural

factors aimed at preventing exhaustion of the physical education tools in training children's body parts, taking into account their age characteristics, are shown.

Key words: Means, physical training, physical qualities, reserve, physical exercises, healing forces, hygienic factors, technique, personality, abilities, load, exhaustion, training, skill.

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti davrida jismoniy tarbiya va sport yurtboshimiz tashabbusi tufayli davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida cho'qqi sari bormoqda. Shu munosabat bilan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 03.06.2017 yildagi PQ-3031-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Bu borada ayniqsa sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash poydevori sanalgan bolalar sportini rivojlantirish, o'quv-mashg'ulot va ommaviy musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish va yosh iste'dodli sport zahiralarni tayyorlash samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda

Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning o'рни va ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki, jismonan sog'lom organizm aqlan ham sog'lom bo'la olishi olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlarda o'z aksini topgan. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish bolada yuqoridagi sifatlarning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda jismoniy tarbiya vositalari ham bolalarning har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda bevosita asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning jismoniy holatini yaxshilashda gigiyenik omillar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va jismoniy mashqlardan doimiy ravishda foydalanish yaxshi samara beradi. Har xil turdagi faoliyatlarga kiruvchi (qo'l mehnati, musiqa asboblari chalish, loy yoki plastilindan buyumlar yasash, rasm chizish, kiyinish, yuvinish va boshqalar) xilma-xil harakatlar bolaning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. To'laqonli jismoniy tarbiyaga barcha vositalar, umumiy qo'llanilganda erishiladi, chunki ularning har biri kishi organizmiga har xil ta'sir qiladi. Gigiyenik omillarga quyidagilar kiradi:

- Mashg'ulotlar rejimi;
- Dam olish va ovqatlanish;
- Uyqu;
- Kiyim-bosh;
- Poyabzal;
- Jismoniy tarbiya jihozlari va maydonchalari

Ular jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi. Masalan, jismoniy mashg'ulotlar suyak va muskul tizimining rivojlanishiga yaxshi yordam beradi. Xonalar, jismoniy tarbiya jihozlari, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyafzalining tozaligi har xil kasalliklarning oldini oladi. Gigiyena talablarini o'z vaqtida bajarish bolalarda ijobiy emotsiya

uyg'otadi va jismoniy mashqlarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Gigiyenik omillar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy madaniy gigiyenik omillar.
2. Shaxsiy madaniy gigiyenik omillar.

Umumiy madaniy gigiyenaning omillariga barcha bolalar uchun umumiy bo'lgan talablar: xona kengligi, dizayni, jihozlanishi va yoritilishi, shkaflarning, stol, stul, yuvinish xonasi, yotoqxonada kravatlarining bolalar yoshiga, bo'yiga mosligi kiradi.

Shaxsiy madaniy gigiyenik omillarga esa bola shaxsi bilan bog'liq bo'lgan gigiyena, yani bolaning tozaligi, kiyimlarining o'ziga mosligi, tirnoqlarining olinganligi, qo'l yuzlarining tozaligi, dastro'molchalarining borligi, o'z shkafi, o'z sochiqlari, kravati, o'zining o'rni bo'lishi kiradi. Gigiyena omillari barcha organ va tizimlarning normal ishlashiga yordam beradi. Masalan, doimiy va sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi, shuningdek bolaning normal rivojlanish va o'sishiga ham yordam beradi. Normal uyqu asab tizimiga dam beradi, toliqishlarning oldini oladi va ishchanlik qobiliyatini oshiradi. Yorug'likning to'g'ri taqsimlanishi ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar)ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, bolalarning maydonchada harakat qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Kundalik rejimiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari:

- Quyosh;
- Havo;
- Suv;

Ushbu uchta omil inson bolasining har tomonlama sog'lom va baquvvat bo'lib kamol topishida hamda chiniqishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda suzish bilan bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi, ayrim organlar va organizm tizimlarining funksional imkoniyatlari oshadi hamda modda almashinuvi kuchayadi. Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirish, uning yuqori va past haroratga moslashuv qobiliyatini oshirish uchun foydalidir. Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi meteorologik omillarning xilma-xil o'zgarishlariga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi. Bunda tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlarini jismoniy mashqlar bilan birga qo'shib olib borish chiniqish samaradorligini oshiradi. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan mustaqil vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Suv terini kirdan tozalash, kishi tanasiga mexanik ta'sir etish uchun qo'llaniladi. O'rmon, bog'lar, xiyobonlardagi shifobaxsh moddalarga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi, kishi organizmiga yaxshi ta'sir qiladi. Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va kishini turli kasalliklardan (raxit va boshqalardan) saqlaydi. Organizmga har tomonlama ta'sir ko'rsatish uchun

tabiatning barcha sog'lomlashtiruvchi kuchlarini qo'llash, ularni oqilona tarzda birga qo'shib olib borish zarur. Shuningdek tabiatning barcha sog'lomlashtiruvchi kuchlarini qo'llashda ma'lum bir me'yorni ham nazardan chetda tutmaslik zarur. Jumladan quyosh vannalarini qabul qilishda ham ertalabgi soat 10-00 dan keying muolaja inson salomatligi uchun zararli hisoblanadi, chunki ultra binafsha nurlari to'g'ridan to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlar- jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib, har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, ko'plab kasalliklarni davolashda vosita hisoblanadi. Musiqa jo'rligidagi raqs mashqlari organizmning barcha tizimlariga ta'sir qiladi, jismoniy qobiliyatlar (chaqqonlik, tezkorlik va boshqalar)ni rivojlantiradi, shuningdek, harakatlar nafis, erkin, ifodali bo'lib boradi, ijobiy emotsiyalar paydo qiladi, to'g'ri qomatni shakllantirishga yordam beradi. Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm chizish, va narsa yasash boshqalar)ga kiruvchi harakatlar, agar qomatni to'g'ri tushishiga rioya qilinsa, shuningdek, jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, jinsi, sog'lig'ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Teri analizatorlarining o'tkazuvchi yo'llari bola tug'ilguncha yuzaga keladi, shuning uchun yangi tug'ilgan chaqloq teri retseptorlari orqali bo'ladigan tashqi ta'sirni ko'proq qabul qiladi (bolalarda 6 oygacha teri yuzasidagi retseptorlar nisbatan ko'p bo'ladi). Massaj qon tomiri tizimiga ham ta'sir qiladi. Terida asab kuchlari ta'siriga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapillarlar kengayadi, qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj ta'sirida yog' va teri bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, muskullarda oksidlanish-qaytarilish jarayoni kuchayadi va ularning qisqarish qobiliyati ortadi. Massaj limfa tizimiga ta'sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi. Bola hayotining birinchi kunlaridanoq namoyon bo'ladigan shartsiz (tug'ma) reflekslar uning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Agar bola qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko'taradi va buradi, chalqancha yotganda oldinga oladi. O'ngga yonboshlatilganda chapga, chapga yonboshlatilganda o'ng tomonga buriladi. Shunday qilib, shartsiz reflekslar muskullar qisqarishini yuzaga keltiradi va ulardan bola hayotining birinchi haftasida, hali jismoniy mashqlarni qo'llash mumkin bo'lmagan (qo'l va oyoqlarni bukuvchi muskullar gipertoniyasi tufayli) paytda rivojlantirish va umuman organizmga ta'sir etishda foydalanish mumkin. Sog'lomlashtirish ta'limiy, tarbiyaviy vazifalarni to'la hal etishning majburiy sharti: jismoniy tarbiyaning yuqorida sanab o'tilgan barcha vositalaridan umumiy tarzda foydalanish hisoblanadi. Turli yosh bosqichlarda ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amalga oshirish samaradorligi asosiy va qo'shimcha vositalarni to'g'ri qo'shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki uch oyligida gigiyena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari, shartsiz reflekslar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bola bir yoshga to'lganida massaj, sust, sust-faol mashqlar, asosiy harakatlar

(emaklash va boshqalar) dan foydalaniladi. Yoshi katta bo'lgan sari gigiyenik omillar, tabiat tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga, ozroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi. Jismoniy mashqlardan samarali foydalanish bolaning o'sishi va rivojlanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiya bo'yicha bajariladigan ishni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish uni samarali hal etishda nihoyatda muhimdir. Kun davomida turli xil mashg'ulotlarni jismoniy mashq va harakatli o'yinlar bilan qo'shib olib borilishi, bolaning to'g'ri harakatini ta'minlashga yordam beradi. Mashg'ulotlar to'g'ri tashkil etilsa, qiziqarli, ibratli jihatlari oshirilsa, bolalar o'z vaqtida dam olishlariga e'tibor berilsa, shundagina mashg'ulot samaradorligi ortadi. Mashg'ulotda eng muhimi mashq va o'yinlarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunda mashg'ulotning asosiy vazifasini ajrata olish lozim, uning mazmuni ko'zda tutgan maqsadni hisobga olib, bola tanasining ma'lum qismlariga har tomonlama ta'sir o'tkazishi zarur. Shu jumladan, mashg'ulotlar unumdorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog'lash ham muhimdir. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg'ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob- havoga muvofiq ravishda tanlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bolalarning har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda, jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillarning ta'siri beqiyosdir. Bolaning dunyoga kelishi bilan uni yuqorida keltirib o'tilgan tabiiy sog'lomlashtiruvchi kuchlar orqali chiniqtirib borsak, bola nafaqat sog'lom balki, har xildagi kasalliklar, vitamin etishmasligi, immunitetining sustligi kabi holatlardan xalos bo'ladi hamda ortiqcha muammolarga ehtiyoj sezilmaydi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'tkazishda asosiy harakat va o'yin mashqlari, bir xildagi mashg'ulotlardan tortib turli xildagi, ya'ni harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko'ra, harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o'stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bu esa har tomonlama sog'lom va baquvvat yoshlarning kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.X.Tadjiyeva, S.I.Xusanxodjayeva "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Toshkent. "Iqtisod-moliya" 2017
2. Rustamov A. A., Mansurov O. YOSH VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHDA JISMONIY SIFATLAR VA HARAKATLI O 'YINLARNING O 'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 291-292.

3. Rustamov A. A. O'ZBEKISTONDA UCH BOSQICHLI SPORT MUSOBAQALARINING RIVOJLANISHI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 18. – №. 5. – С. 96-103.
4. Rustamov A. A., Ikromboyev A. Methodology for Teaching Preschool Children to the Main Types of Movement in the Medium of Action Games //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 103-107.
5. Asqarovich R. A. YOSH GANDBOLCHILARDA KUZATISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 148-153.
6. Rustamov A. A. Development Chronology of Three-Level Sports Competitions in the System of Continuous Education in Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 34-39.
7. R.D. Iydiyev. Action Games and Their Role in the Development of Preschool Children
8. R.D. Iydiyev. The Role of Action Games in the Development of the Physical Qualities of 11-12 Year Old Volleyball Players

BOLALARNING AQLIY VA JISMONIY TARBIYASI SOHASIDAGI PEDAGOGIK G'OYALAR DINAMIKASINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Muxitdinova Nigora Mexriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

"Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi"

Kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Annotation: This article analyzes the artistic, philosophical and socio-political views of Plato, Aristotle, Quintilian on the issue of physical and intellectual upbringing of young children. The contents of the programs are disclosed in order to improve the theory and practice of intellectual and physical exercises. Also, the methodological requirements of the technology of using physical exercises in the intellectual development of children have been explained scientifically.

Key words: Intelligence, physical exercise, physical development, competence, movement activity, construction, speech, communication, motor skills, elementary mathematics, technology, logical thinking, attention, memory, imagination, thinking, speech, ability

Mazkur maqoladayosh bolalarni jismoniy va intellektual jihatdan tarbiyalash masalasida, Aflotun, Aristotel, Kvintilianning badiiy, falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlaritahlilqilingan. Intellektual va jismoniy mashqlar nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish maqsadidadasturlar mazmuniochibberilgan. Shuningdek bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishda jismoniy mashqlardan foydalanish texnologiyasini metodik talablariilmiyjihatdanyoritibberilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, jismoniymashq, jismoniyrivojlanish, kompetensiya, harakatfaolliqi, konstruksiya, nutq, muloqot, motorika, elementarmatematika, texnologiya, mantiqiyfikrlash,diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, qobiliyat

В данной статье анализируются художественные, философские и общественно-политические взгляды Платона, Аристотеля, Квинтилиана на проблему физического и интеллектуального воспитания детей раннего возраста. Содержание программ раскрыто с целью совершенствования теории и практики интеллектуальных и физических упражнений. Также научно обоснованы методические требования технологии использования физических упражнений в интеллектуальном развитии детей.

Ключевые слова : Интеллект, физические упражнения, физическое развитие, компетентность, двигательная активность, построение, речь, общение, моторика, элементарная математика, технология, логическое мышление, внимание, память, воображение, мышление, речь, способности.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi etarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Bunday qator vazifalarda bolalarning jismoniy va psixik salomatligi, shu jumladan, ularning hissiy holatini tadqiq qilish va ijobiy tomonga o'zgartirish, maktabgacha yosh davrida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar, ularning individualligi, o'ziga xos qobiliyati va intellektual salohiyatini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga kompleks yondashish muhim. Bu maktabgacha ta'lim dasturiga keng ko'lamli faoliyat va tajribalarni, jumladan jismoniy tarbiya, musiqa va san'at, ijtimoiy va hissiy ta'lim va akademik ta'limni kiritishni o'z ichiga oladi. Bolalarning ta'lim olishi va rivojlanishiga kompleks yondashuvni qo'llash orqali biz ularning umumiy salomatligi va farovonligini oshirishga yordam beramiz, shu bilan birga ularni maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga yo'naltiramiz.

Masalan, Aflotun, Aristotel, Kvintilianning badiiy, falsafiy va ijtimoiy-siyosiy asarlarida mazmun, shakl, usul, tarbiya vositalarini izlash o'z aksini topgan. Jamiyat rivojlanishining quldorlik davrida yosh bolalarni jismoniy va intellektual jihatdan tarbiyalash masalasi haqli ravishda kun tartibiga qo'yilgan. Ko'pgina jamiyatlarda,

jumladan, qadimgi Yunonistonda qullik davrida yosh bolalarni tarbiyalash ijtimoiy tartibni saqlash va mavjud kuch tuzilmalarini davom ettirishning muhim vositasi sifatida qaralgan. Biroq, bu nuqtai nazardan ham, yosh bolalar uchun jismoniy va intellektual tarbiya muhimligi e'tirof etildi.

Aflotun jismoniy tarbiya orqali bola jismoniy, aqliy barkamollikka erishishini ta'kidlagan. Aristotel, jismoniy tarbiyaning salomatlik va sog'lomlikni mustahkamlashda muhimligini tan oldi va bolalarni keng ko'lamli jismoniy faoliyatga o'rgatish kerak deb hisobladi. Rim faylasufi va pedagogi Kvintilian ta'limni har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatiga moslashtirish muhimligini ta'kidlagan. Ubolalarga keng ko'lamli ko'nikma va bilimlarni, jumladan, jismoniy va intellektual tarbiyani o'rgatish kerakligini ta'kidladi.

Sharq faylasuflari tomonidan "Harakat bu – hayot" deb bejiz aytilmagan. Bolaning jismoniy tarbiyasi bashariyat ahlining doimiy e'tiborida bo'lganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Uch ming yillik tarixga ega "Avesto"da "bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, navqiron va kuchli yorlar topaylik. Toki ulardan hushyor va sog'lom farzandlar dunyoga kelsin", - deya ta'kidlangani o'sha davrlardanoq insoniyatning jismoniy mashqlar vositasida sog'lom avlodni tarbiyalashiga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. "Avesto" kitobida yoshlarning jismoniy chiniqishlari uchun hayotda kerak bo'ladigan mashqlarni bajarganliklari, ya'ni yoshlikdan otda yurish, ovchilikda kerak bo'ladigan harakatlarni bajarish va shunga o'xshash boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullantirilganligi ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning aqliy va jismoniy tarbiyasi sohasidagi pedagogik g'oyalar dinamikasining eng muhim yo'nalishlari maktabgacha pedagogika va psixologiya fanining rivojlanishi, uning barcha tarixiy bosqichlarda bolalar bog'chalari amaliyoti bilan yaqin, uzviy bog'liqligidadir.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-fevralda tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat dasturi hamda 2020- yil 27- martdagi 54-son buyrug'iga asosan "Ilm yo'li" variativ dasturi (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash)da ilg'or xorijiy tajribalar va zamonaviy talablar asosida o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil qilishning maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda bolalarning 5 yo'nalishda soha kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan:

1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetensiyalari (jismoniy rivojlanishdagi o'z imkoniyatlari va yosh me'yorlariga mos holda jismoniy faollikni namoyon qiladi; koordinatsiyalashgan va maqsadli holda harakatli faollikning har xil turlarini amalga oshira oladi; turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi; sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini tartibga soladi; shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini qo'llaydi; sog'lom turmush va to'g'ri ovqatlanish asoslarini biladi; xavfsiz hayotiy faoliyati qoidalariga rioya qiladi.)

2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari (o'z "men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi; o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi; o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi; kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi; murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi).

3. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari (nutqni eshitadi va tushunadi; o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi; ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi; ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi; badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi; so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi; turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi; yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.)

4. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari (bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi; o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi; predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi; raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi; makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi; elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi; atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi; atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi).

5. "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari (san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi; milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi; san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisida yuqorida sanab o'tilgan soha kompetensiyalarini rivojlantirish tegishli mashg'ulotlar jarayonida uzviy, bir-biri bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Natijada bola har tomonlama intellektual rivojlanadi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida e'tirof etish joizki, bolalarni intellektual rivojlantirishda, 5 soha kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita jismoniy mashqlar bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy mashqlar vositasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi uning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan asoslanadi. Bu davrda bolaning suyak-muskul tizimi shakllanishda davom etib, uning organizmida rivojlanish davri kechayotgan bo'ladi. Ana shu holatning o'zi uning jismoniy xatti-harakatlarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Ko'p aqliy mehnat talab etadigan mashg'ulotlarda vaqti-vaqti bilan jismoniy daqiqalarni o'tkazib turishning o'zigina bolaning yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlarini qondirish uchun etarli hisoblanmaydi. Shu maqsadda jismoniy mashqlardan maqsadli va o'rinli

foydalanish zarurdir.

Bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishda jismoniy mashqlardan foydalanish texnologiyasi ma'lum metodik talablarga javob berishi ya'ni quyidagi mezonlariga mos kelishi muhimdir:

1) konseptuallik: jismoniy mashqni tanlashda maqsadni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan har qanday aniq ilmiy nazariyaga tayanish;

2) izchillik: yaxlitlik, jarayonning mantiqiyligi, uning barcha tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqligi, shu jumladan:

jismoniy mashqni tanlashning ilmiy asosi sifatida tushuniladigan konseptual asos;

tarkib komponenti;

jarayon qismi (mashq jarayonini tashkil etish, ishtirokchilarining jismoniy faoliyat usuli va shakli yo'riqchi - tarbiyachi tomonidan to'g'ri tanlanishi);

3) nazorat qilish imkoniyati: diagnostik maqsadni belgilash, rejalashtirish, loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish;

4) samaradorlik: muayyan natijalarga erishish kafolati;


5) takrorlanuvchanlik: jismoniy mashqlardan turli sharoitlarda foydalanish qobiliyati.

Shunday qilib, bolaning intellektini jismoniy mashqlar vositasida rivojlantirish mazmuni umuman olganda, pedagogik usullar, shakllar, vositalar va psixologik-pedagogik shartlar majmuiga singdirilishi mumkin. Pedagog va sport yo'riqchisi aniq belgilangan modelga muvofiq ta'lim jarayonini rejalashtirish, olingan natijalarni baholash va uning doimiy monitoringini ta'minlaydi.

Jismoniy mashqlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashda bolaga topshirilgan vazifalar darajasini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, uning qobiliyatlari, ijodkorligini maksimal darajada rivojlantirishni inobatga olish muhim. Masalan, bir xil o'lchamdagi 16 ta rang-barang kublardan iborat "Naqshni tanla" o'yini bola tomonidan uchta turdagi jismoniy mashqlarni ketma-ket bajarishni o'z ichiga oladi: 1) belgilangan vaqt ichida ma'lum masofada bola yugurib, emaklab yoki sakrab kublar to'plangan manzilga boradi va bir xil naqshli kublarni yig'adi; 2) aksincha, rangli kublarni to'plab kelib naqsh hosil qiladi; 3) bola o'z naqshlarini o'ylab topadi va ularni kublardan yasaydi. Natijada, ushbu o'yin jarayonida bolada tahlil qilish va sintez qilish, shu asosda mustaqil ravishda yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati rivojlanadi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Rasmi kublar" yordamidagi jismoniy mashqlar to'plami quyidagicha aks ettirildi. Bu jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yin "Evrika ombori" deb nomlanadi. Omborga kubiklarga harflarning alohida qismlarga ajratilib chizilgan belgisi mavjud bo'ladi. Ushbu kublar yordamida harflarni yasash orqali bolalar o'qishga o'rgatiladi. Jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yin, tabiiy ravishda bolalarda og'zaki-mantiqiy fikrlash va yodlashni rivojlantirish, savodli yozish ko'nikmalarini shakllantirish, so'z boyligini sezilarli darajada oshirish va nutq terapiyasi kamchiliklarini tuzatish uchun samarali hisoblanadi. Intellektual ta'limda

tarbiyalanuvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish tabiati, asosan, nutq o'stirish ularda matematik tasavvurlarni shakllantirish vazifalari va mazmuni aniqlanib, mashg'ulot jarayonini loyihalanib bilim va ko'nikmalar doirasi aniq belgilab berilgan. Bunda sensor ta'lim yanada kengroq namoyon bo'ladi, shuningdek, bolalarning narsa va hodisalar o'rtasidagi eng oddiy qonuniyatlar va aloqalar haqidagi bilimlari, bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Namuna tariqasida taqdim qilingan jismoniy mashqlardan tashkil topgan o'yinlar bolaning aqliy jarayonlarini rivojlantirish: diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, nozik vosita qobiliyatlari; ranglar va shakllarni, harflar va raqamlarni eslab qolish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuni inobatga olib, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlanish tuzilmasi quyidagi rasmda aks ettirildi (1-rasmga qarang)



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlanish tuzilmasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy tarbiya jarayonlarini o'rgangan olimlarning sa'y-harakatlari, asosan, maktabgacha ta'lim tashkilotida aqliy va jismoniy tarbiyaning mazmuni va usullarini takomillashtirishga qaratilgan bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita muammoni o'rganish lozim.

Nazariy materialning tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida (aqliy va jismoniy tarbiya) tarkibiy bo'linmalar: bilim, ko'nikma, malakalarning o'zaro munosabatlari aniq kuzatilgan, bu esa shaxsning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga imkon beradi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan aqliy va jismoniy tarbiya muammolarini hal qilish bolaning tashabbusi va ijodiy faolligini tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogika va psixologiya sohasida tadqiq qilgan olimlar maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishga obyektiv hissa qo'shish uchun ta'lim jarayonining mazmunini, uni maktabgacha yoshdagi bolalik davriga moslashtirish yo'llari va usullarini tushunishga harakat qilishlari lozim. Olib borilgan tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligini rag'batlantirish bolaning umumiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijasiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim mazmunini rivojlantirishning qayd etilgan xususiyatlari, aqliy va jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalish ko'rsatkichi ekanligi aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy tarbiyasi sohasidagi pedagogik fikrlar rivojlanishining didaktik imkoniyatlari, uning dinamikasini o'rganish davrida nashr etilgan davlat hujjatlarining konseptual asoslariga bog'liqligi bilan belgilanadi.

2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son Farmonining 39-maqsadi: maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish ko'zda tutilgan.

O'rganilgan nazariy materiallarni tahlil qilish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning aqliy va jismoniy tarbiyasi sohasidagi pedagogik fikrlar rivojlanishining bir qator muhim ko'rsatkichlarini (belgilarini) aniqlashga imkon berdi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning aqliy va jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik fikrni rivojlantirishning asosiy uslubiy qo'llanmasi demokratlashtirish, bolalar bog'chasida ijodiy shaxsni erkin rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim;

- aqliy va jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullarini qayta ko'rib chiqishning muhim yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasini

individuallashtirish usullarini kengaytirishdan iborat;

- demokratlashtirish, insonparvarlashtirish jarayonlari inson faoliyatining turli sohalariga, jumladan, maktabgacha ta'limga faol ta'sir ko'rsatadi;

- zamonaviy yondashuvlarni sohaga tatbiq etish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari jamoasining pedagogik jarayoni va pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli asosida pedagogik jarayonni loyihalash orqali bolalarning aqliy faolligini jismoniy mashqlar vositasida rivojlantirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy tarbiyasi sohasidagi pedagogik fikrning rivojlanishini belgilovchi ijtimoiy-madaniy shartlar maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi insonparvarlik pedagogikasiga uzluksiz ko'tarilish bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda mutaxassislar bolaga har kuni kamida 60 daqiqa o'rtacha va kuchli jismoniy mashqlar bajarishni tavsiya qiladilar. Chunki ushbu harakatlar yurak-qon tomir salomatligi uchun juda muhimdir. Ammo jismoniy mashqlar bolalar uchun boshqa sabablarga ko'ra ham ahamiyatlidir. Bu miya o'sishini rag'batlantirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalarning diqqatini jamlashga va rejaga qat'iy rioya qilishga yordam beradi. Bu esa bolalarga berilgan mashq va topshiriqlarini yanada yaxshiroq o'rganishlarini osonlashtiradi. Aqliy va jismoniy tarbiyaning birligidan foydalanishga asoslangan aqliy va jismoniy tarbiya o'rtasidagi uzviylik jarayonida bola elementar harakatlarni takrorlaydi, ularni bir-biri bilan taqqoslaydi va farqlarni aniqlaydi. Harakatlar asta-sekin murakkablashib borgan sari bola kattalar rahbarligida qiyinchiliklarni engishga o'rganadi. Bola atrofdagi narsalarni hisobga olgan holda harakat qiladi, ularni oldindan ko'ra oladi va shunga asosan natija oldindan bashorat qilinadi. Vaqt va makonda o'z harakatlarini o'lchashni o'rganib boradi. Bolalar faoliyatning turli sohalarida bajarilgan harakatlarni, olingan ko'nikmalarni tekshiradi hamda ularni mustahkamlashga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022– 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF–60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni //O'RQ-637-son. 23.09.2020.

3. Бережнова О.В., Бойко В.В. Парциальная программа физического развития детей 3–7 лет «Малыши-крепыши». — М.: Издательский дом «Цветной

мир», 2017. — 136 с.)

4. Болотина, Л. Р. Дошкольная педагогика : учебное пособие для вузов / Л. Р. Болотина, Т. С. Комарова, С. П. Баранов. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 218 с.

5. Блонский, П. П. Педология / П. П. Блонский. – 2-е изд., стер. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 315 с.

6. Вавилова Е.Н. Учите бегать, прыгать, лазать, метать. 3-е изд. М.: Физкультура и спорт, 1991. - 214

7. Выготский Л.С. Соч.: в 6 т. Т.4. Детская психология / Под ред. Д.Б.Эльконина. -М.: Педагогика, 2004. -432 с.

8. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika O'quv qo'llanma T-2013-172 b

9. Карманова Л.В., Шебеко В.Н. Физическая культура в старшей группе детского сада. Методическое пособие. Минск, Полымя, 1987, С. 14.

10. Килпио Н.Н. 80 игр для малышей. - М.: Знание, 1990. - 129 с.

11. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. - М.: Знание, 1989. - 80 с.

12. Козлова С.А., Куликова А.Т. Дошкольная педагогика М: Учебник Академия, 2020 432 - б

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY-AXLOQIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

*Akramova Gulhayo Mexriddin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi"
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola pedagogik deontologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan "deontologik tayyorgarlik" tushunchasini o'rganishga bag'ishlangan. Pedagogik deontologiya o'qituvchini tarbiyachi sifatida o'rganadi. Asosiy e'tibor o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini, malakasini oshirishga qaratilgan. "Deontologik tayyorgarlik" tushunchasi o'qituvchining kasbiy majburiyati, qadriyat yo'nalishlari va pedagogik axloq normalarini bilishning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Muallif o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini o'rganishga turli yondashuvlarni ko'rib chiqadi va tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, deontologik faoliyat, umumta'lim maktablari, deontologiya.

Kirish. Ijtimoiy-tarixiy kontekst global ta'lim tizimlariga ta'sir qiladi va o'qituvchilar faoliyati ularning kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarni shakllantiradi. Zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, milliy an'analar mavjud ta'lim tizimlarini o'zgartirmoqda. Dunyodagi ko'plab ta'lim tizimlari islohot va modernizatsiyadan o'tmoqda. Zamonaviy ta'lim siyosati pedagog kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. "Deontologik tayyorgarlik" atamasi pedagogik deontologiyada yangi avlod o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy fazilatlar to'plamini belgilash uchun ajratilgan.

Pedagogikada "deontologik tayyorgarlik" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda ijtimoiy o'zgarishlarning zamonaviy sharoitida, inson atrof-muhit ta'sirining passiv ob'ekti emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat ta'limning tashqi sharoitlari - o'qituvchi mahorati, o'quv dasturini oqilona loyihalash, darsliklar, o'quv-uslubiy materiallar, o'qitish usullari, vositalariga bog'liq, balki uning ichki holati, o'zini o'zi tashkil etishi va psixologik muhitiga ham bog'liq.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligini samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning fundamental nazariy, uslubiy va axloqiy-g'oyaviy tayyorgarligining zamonaviy talablarga javob beradigan konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.

Kontsepsiya deganda g'oyalar majmui, muallifning ilmiy muammoni hal qilish yo'llari haqidagi qarashlari tushuniladi, unda olingan bilimlarning qiymat asoslari va uni ijtimoiy-madaniy amaliyotda qo'llash ko'lami ta'kidlanadi.

Kontseptsiya tamoyillariga alohida e'tibor qaratish lozim

Pedagogik faoliyat strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar, o'quv loyihasining umumiy ma'nosi, uni amalga oshirish maqsadi, muammoli vaziyatni har tomonlama tahlil qilish natijalari va o'quv amaliyotida uni hal qilish imkoniyatlarini prognoz qilish kerak. jamlangan bo'lish.

Bir qator tadqiqotlarda taklif etilgan tushunchalarning mavjud ta'riflari va pedagogik kontseptsianing tarkibiy va mazmuniy tarkibini hisobga olgan holda, biz kelajakdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi kontseptsiyasini ishlab chiqdik. Bu o'qituvchining deontologik tayyorgarligi haqidagi muallif qarashlarining tizimli tavsifini ifodalaydi va o'qituvchining deontologik madaniyatini shakllantirish jarayonining qiymat-semantik, tarkibiy-tashkiliy va protsessual-faoliyat jihatlarini o'z ichiga oladi.

Konsepsianing kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodologiyasi va nazariyasidagi ierarxik o'rni quyidagi nazariy darajalarning o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi: kasb-hunar ta'limi va deontologiya – maxsus (jismoniy tarbiya) ta'lim va deontologiya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasida - jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi tushunchasi.

Kontseptsiya quyidagi bo'limlardan iborat: umumiy qoidalar, kontseptual apparat, uslubiy asoslar, o'qitish mazmuni.

"Umumiy qoidalar" bo'limi jamiyatning kontseptsiyani ilmiy asoslashga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi (dasturiy va me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy tartib; bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar tizimi, standartlarni asoslash), kasbiy xulq-atvori, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining uzluksizligi va ko'p bosqichliligi, ta'lim faoliyati sub'ektlarining qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish.

Ushbu bo'limda maqsadni belgilash alohida o'rin tutadi.

Kontseptsiasining maqsadi - uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini deontologik tayyorlash jarayonini nazariy, uslubiy va texnologik jihatdan asoslash.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligini tashkil etish, uning deontologik madaniyatini shakllantirish va ta'lim muassasalarida samarali kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlash etakchi g'oyadan iborat. Bu jarayon moslashuvchan jismoniy tarbiya vositalaridan foydalangan holda nogiron talabalar bilan kasbiy faoliyatning qiymat asoslarini yangilashga va sog'lomlashtirish ishlarining fanlararo yo'nalishlarini tizimli integratsiyalashga asoslangan.

"Konseptual-kategorik apparat" bo'limi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasiga moslashtirilgan deontologik nazariya va amaliyotdan tushuncha va g'oyalar guruhlaridan iborat atamalar tezaurusini o'z ichiga oladi.

"Metodik asoslar" bo'limi kontseptsianing o'zagi bo'lib, ular asosida aniqlangan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini deontologik tayyorlash jarayonini rivojlantirishning uslubiy yondashuvlari, omillari, shartlari, tamoyillari, qonuniyatlari

va tendentsiyalari majmui hisoblanadi. nazariy va uslubiy asoslar va mavjud tajriba tahlili.

Tadqiqotda asosiy metodologik yondashuvlar aksiologik, akmeologik, dialektik, kulturologik, tizimli-faollik va malakaga asoslangan yondashuvlar sifatida belgilandi.

Aksiologik, kulturologik va dialektik yondashuvlar qoidalaridan foydalanish jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligining ijtimoiy-madaniy shartlilik naqshini aniqlashga va ijtimoiy-madaniy tamoyillardan foydalanishning mazmuni va o'ziga xosligini aniqlashga imkon berdi: demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, kasb-hunar ta'limining integratsiyasi va innovatsion yo'nalishi.

Tizimli-faol yondashuvning imkoniyatlarini tahlil qilish o'qituvchining deontologik tayyorgarligini, tarkibiy tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismlari va integrativ aloqalariga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida qurishning istiqbolli yo'llarini aniqlash imkonini berdi. Bu o'qituvchining deontologik tayyorgarligini shakllantirish jarayonini tashkil etish qonuniyatlarini va deontologik tayyorgarlik tizimini ko'p bosqichli tashkil etishning umumiy tamoyillarini: uzluksizlik, uzluksizlik, izchillik va kasbiy yo'naltirish tamoyillarini aniqlash imkonini berdi.

Akmeologik yondashuv qoidalariga rioya qilish deontologik tayyorgarlikning akmeologik yo'nalishini o'rganish va bo'lajak o'qituvchining shaxsiyatini kasbiylashtirish sub'ekti sifatida rivojlantirish yo'llarini taklif qilish imkonini berdi. Deontologik ta'limning individual-ijodiy yo'nalishining samaradorligi va tamoyillari aniqlangan kompetentsiyaga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning pozitsiyalari: rivojlanish tamoyillari, kasbiy kompetentsiya, faoliyat, pedagogik optimizm va samaradorlik, normalarni qo'llash istiqbollari.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligi jarayonini tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar: shaxsan muhim, motivatsion va qimmatli, tashkiliy-texnologik omil va nazorat-me'yoriy omillar aniqlandi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining deontologik tayyorgarligini belgilaydigan tashkiliy-pedagogik shartlar quyidagilardan iborat: tashqi (pedagogik ta'limning integral rivojlanishi va uni insonparvarlashtirish, ta'lim xizmatlari iste'molchilarining ijtimoiy tartibining mavjudligi, o'quvchilar haqida ijtimoiy-madaniy g'oyalarni shakllantirish, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbi mahorati, moslashtirilgan jismoniy madaniyat sohasida zamonaviy ta'limning mavjudligi) va ichki (o'qituvchining dunyoqarashi va kasbiy qadriyatlari, kasbiy rivojlanish, o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi anglash uchun shaxsiy ehtiyojlar, professional fazilatlar, kasbiy kompetentsiya).

"Deontologik tayyorgarlik mazmuni" bo'limida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining asosiy va o'zgaruvchan qismining o'quv fanlari mazmuni va semantik mazmunining xususiyatlari tushuntiriladi, bu o'quv va ta'lim mazmunini amalga oshirishdagi munosabatlarni hisobga olgan holda qurilgan.

“Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining deontologik tayyorgarligi” maxsus kursi shakllangan kompetensiyalar doirasida olingan bilimlarni birlashtirish vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining deontologik tayyorgarligini tashkil etishning mohiyati va tuzilishi va yondashuvlar pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini, shu jumladan samaradorligini baholash uchun diagnostika vositalari jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish uchun asosdir. Bu umuman jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligining sifat xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi va o‘quv jarayonini loyihalash yo‘liga o‘tkazadi.

Takidlash joizki, ishlab chiqilgan kontseptsianing asosiy qoidalariga rioya qilish, o‘qituvchilar va talabalar tomonidan aniqlangan omillar va shartlarni hisobga olgan holda va dasturning taklif etilgan mazmunini amalga oshirish kelajakdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining deontologik tayyorgarligini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini deontologik tayyorlash jarayonini qurish konsepsiyasi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida zamonaviy didaktik vositalar va texnologiyalarni loyihalashda qo‘llash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini deontologik amaliyotga tayyorlash ularning kasbiy xulq-atvorini yo‘naltiruvchi mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishni nazarda tutadi. O‘qituvchilar hurmat, halollik, xavfsizlik, adolat va doimiy takomillashtirish kabi tamoyillarga urg‘u berib, o‘quvchilarning nafaqat jismoniy farovonligiga, balki ularning axloqiy va axloqiy rivojlanishiga ham yordam berishi mumkin. Ushbu deontologik tamoyillarning kiritilishi jismoniy tarbiyaning o‘zgaruvchan tajribaga aylanishini, jamiyatga ijobiy hissa qo‘shadigan mas‘uliyatli va axloqiy shaxslarni yaratishni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oxitina LT (1977), Darsning psixologik asoslari, " Prosvescheniye ", Moskva.
2. Ozhegov SI (1973), Rus lug‘ati, Sovet Entsiklopediyasi, Moskva.
3. M. Rober va F. Tillman (1988), Individual va guruh psixologiyasi, Progress, Moskva.
4. Kan- Kalik VA (1990), Kasbiy va pedagogik aloqalarni o‘qitish / uslubiy tavsiyalar, Moskva.
5. Dyachenko MI, Kandibovich LA (2002), Psixologiya, lug‘at, Moskva.
6. Kalmikova Z. (1986), Psixologik tadqiqotlar, Moskva.
7. Akramova G.M. *Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga deontologik tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari*. Ta‘lim innovatsion tadqiqotlar.2023/4 125 b.
8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.
9. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma.-T.: БРОК СЛАСС СЕРВИС, 2016. – 84 б.

AHOLI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA YANGICHA YONDASHUV

Qo'ziyeva Feruza Ismoilovna

Buxoro davlat pedagogika inistituti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola aholinng turli qatlamlarida sog'lom turmush tarziga rioya qilishni va aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yangicha yondashuv, odatdagi metodlardan tashqari, innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni, shuningdek, shaxsiy va jamoat darajasida yangi fikrlarni o'z ichiga olgan usullari ko'rsatib o'tilgan. Yangicha yondashuvlar shaxsning ehtiyojlari va jamiyatning o'zgarib turuvchi sharoitlarini inobatga olgan holda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda an'anaviy usullarga nisbatan samarali va barqaror natijalarga erishishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya vositalari, turmush tarzi, sog'lomshtiruvchi yurish, jismoniyy yuklama, yurak qisqarish chastotasi, stiklik mashqlar

Аннотация: В статье представлена теоретико-методическая комплексная информация по вопросам пропаганды здорового образа жизни в различных слоях населения и использования физкультурно-оздоровительных упражнений среди населения.

Ключевые слова: Средства физической культуры, образ жизни, здоровая ходьба, физическая нагрузка, частота сердечных сокращений, упражнения с палками.

Annotation: The article presents theoretical and methodological comprehensive information on the promotion of a healthy lifestyle in various segments of the population and the use of health-improving exercises among the population.

Key words: Physical training tools, lifestyle, healthy walking, physical load, heart rate, stick exercises

KIRISH

Yangi O'zbekistonni qurish va uchinchi renesans ostonasida turgan ekanmiz kadrlarni tayyorlashning yangicha talabi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va O'zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida belgilangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonlaridan "Sog'lom turmush tarzini jamiyat a'zolari ongida qaror toptirish kechiktirib bo'lmaydigan muammo ekanligini aytib o'tgan edilar". Demak, ushbu muammoning dolzarbligini quyidagi omillar bilan ifodalanishi joiz: sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kun talabi, keyingi yillarda ekologiya keskin o'zgarishi; turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va keng tarqalishi, pandimiya oqibatlar.

Sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, insonning salomatligini har tomonlama muhofaza qilish ajdodlarimiz merosidan to shu kungacha o'z aksini topib kelgan. "Hadis"lar va ulug' allomalar Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Farobiy kabi mutafakkirlarning buyuk asarlarida salomatlikni saqlash,

xastalikni davolash va jismoniy chiniqish yo'li bilan umrni uzaytirish haqidagi ilmiy meroslari bizgacha etib kelgan. Shulardan buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning sog'lom turmush tarziga amal qilish yuzasidan qoldirgan merosi tahsinga loyiq. Abu Ali ibn Sino tabobatga oid eng yirik shoh asari "Kitob al qonun fittib" ("Tib qonunlari kitobi") hisoblanib, bu asarda inson sog'ligi va kasalliklariga oid bo'lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to'la bayon etilgan. Ibn Sino sog'liqni saqlash, turmush gigiyenasi, va to'g'ri oqilona ovqatlanish masalalariga katta ahamiyat beradi, uning bu sohadagi maslahatlari hozirgacha o'z qiymatini yo'qotgan emas. Salomatlikni saqlashda badantarbiyaning barcha yoshdagi kishilar uchun ham zarur ekanligini qayta-qayta takidlaydi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish zamonaviy jamiyat turmush tarzining ko'plab tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimli jarayondir. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson hayoti va salomatligini ta'minlash, yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda.

MUHOKAMA

Bugungi yangilanish davrining murakkabligi, iqtisodiy muammolar, atrof - muhitni musaffoligini saqlash, epidemiyalar, turli voqea va hodisalar inson salomatligini yomonlashuviga sabab bo'lib kelmoqda. Faqatgina sog'lom o'zini yaxshi his etadigan, optimist, psixik jihatdan chidamli aqliy va jismoniy ish qobiliyatiga ega, faol yashaydigan odam kasbiy va turmush qiyinchiliklarini eng oladi. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish faqatgina iqtisodiy ta'minlanish jihatidan emas, balki sog'liqni saqlash insonlarni ma'naiy, ma'rifiy madaniy saviyasini oshirishni ham taqqozo etadi. Shuni takidlash kerakki, yoshlarga g'amxo'rlik qilmagan mamlakatlar qariyalar mamalakatiga aylanib boradi. Yoshlar misolida oladigan bo'lsak O'zbekiston bolalarining ko'pchiligi shamollash, zaharlanish, baxtsiz hodisalardan vafot etadilar. Mehnat bilan shug'ullanuvchilar esa vafot etishining sababi yurak- tomir kasalliklari va zararli o'smalar hisoblanar ekan. Sababi esa bugungi kunda jismoniy faollikning kamligi va kamharatlilik, pandimiya asoratlari.

Shu bois bu borada mamalakatimizda ham ko'pgina ishlar amalga oshirilyapdi. Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan Xalqaro forumlar saroyida Sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqot chog'ida shifokorlar aholini sog'lom turmush tarziga jalb qilish zarurligini ta'kidlab shunday so'zlarni aytib o'tdi "Men sizlardan sog'lom turmush tarzi orqali, kasalliklarni oldini olishga ko'proq e'tibor berishingizni so'rayman. Chunki, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanadigan odam hech qanday da'voga muhtoj bo'lmaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz-genetik omillarga, 9 foiz-sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq. Salomatligimiz asosan o'z qo'limizda ekan, jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini yanada oshirishimiz zarur. Bu masala bo'yicha alohida dasturni boshlaganimizdan xabardorsiz. Afsuski to'g'ri ovqatlanmaslik va harakatsizlik oqibatida, bugungi kunda aholimizning 75 foizida

ortiqcha vazn borligi, 30 foizida esa xolesterin va qon bosimi yuqori ekani, barchamizni o'ylantrishi kerak" deb qayta qayta ta'kidlab aholini sog'ligini tiklash bo'yicha ishlar olib borilishi aytib o'tildi. Bu foizlar va kasalliklar serharakat bo'lgan bolalar orasida ham kuzatilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Olib borilgan tadqiqot natijasida bolalarning 30% rivojlanishda tengdoshlaridan orqada qolayotgani aniqlanib buni oldini olish bo'yicha fikr mulohaza qilindi. Bolalar faolligi ta'minlash muhim masalardan biridir bu borada mobil ilovalardan foydalanib bolalar uchun ertalabki badantarbiya (mashqlar) ni o'tkazishning samarali hisoblanadi. Ertalabki mashqlar bolalar uchun jismoniy va psixologik holatni yaxshilashda katta rol o'ynaydi, va mobil ilovalar bu jarayonni yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Qolaversa ertalabki mashqlarbolalarga kunni energiya bilan boshlash imkonini beradi. Mobil ilovalar orqali bolalar har xil jismoniy mashqlarni ko'rishlari, tinglashlari va bajara olishlari mumkin. Bu orqali ular jismoniy faollikni kundalik odatga aylantiradi. Aholi orasida jismoniy faollikning bunday dasturi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: Zamonaviy raqamli texnologiyalar sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda va insonni harakat qilishga undashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Mobil ilovalar, onlayn platformalar va sog'liqni kuzatish qurilmalari yordamida odamlar o'z jismoniy holatlarini nazorat qilishi va sog'lom turmush tarzi bilan yashashga doir ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'ladi.

Sog'liq darajasini kuzatish ilovalari: Misol uchun mobil ilovalar va aqlli soatlar odamlarning harakatlarini, uyqu sifatini, ovqatlanishini va stress darajasini kuzatish imkonini beradi. Ushbu ilovalar foydalanuvchilarga o'z salomatlik holatini yaxshilash bo'yicha maqsadlar qo'yish va ularga erishish uchun motivatsiya berib turishi mumkin.

Virtual mashg'ulotlar: bugungi kunda aholining o'rta yoshli kishilari ham uyda turib mobil ilovalar orqali onlayn jismoniy mashqlar yoki yoga darslariga bevosita ishtirok etgan holda jismoniy faolliklarini oshirib tan sihatliligiga erishishlari mumkin. Bu, ayniqsa, ish vaqti cheklangan yoki jismoniy mashqlarni an'anaviy ravishda o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar uchun qulaydir.

Sog'lom ovqatlanish bo'yicha onlayn platformalar: bugungi davrda yangi atamalar nutrisyonistlar yoki dietologlar bilan onlayn sog'lom ovqatlanish, sog'lom ozish kurslarida qatnashish va maslahatlashish ommalashdi. Bunday kurslar esa aholini sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ishtiyoqini ancha oshirdi. Sog'lom turmush tarzini yaratish faqat jismoniy faollik va ovqatlanish bilan cheklanibgina qolmasdan emotsional va psixologik holat ham katta ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum.

Mindfulness (Diqqatni jamlash): Stressni kamaytirish va ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun mindfulness yoki diqqatni jamlash texnikalarini targ'ib qilish. Bu texnikalar yordamida insonlar hozirgi onga to'liq e'tibor qaratadi, bu esa stressni kamaytirishga, ichki tinchlikni saqlashga yordam beradi. *Psixologik konsultatsiyalar va guruh mashg'ulotlari:* Stress, depressiya, xavotir kabi muammolarni hal qilish uchun

psixologlar tomonidan onlayn yoki oflayn konsultatsiyalar va guruh terapiyalari tashkil etish.

Emotsional yordam dasturlari: Yaxshi kayfiyatni va motivatsiyani saqlash uchun yangi yondashuvlar — ijtimoiy tarmoqlarda motivatsion kontent, video seriyalar va emotsional yordam dasturlarini ishlab chiqish.

XULOSA

Aholining turli qatlamlari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha innovatsion va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq va barqaror natijalarga erishishga yordam beradi. Ushbu maqolada shaxsiy va jamoat darajasida yangi fikrlar, texnologik yutuqlar hamda zamonaviy metodlardan foydalanish muhimligi ta'kidlangan. Yangicha yondashuvlar inson ehtiyojlari va jamiyatning doimiy o'zgarib boruvchi sharoitlarini inobatga olgan holda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yanada samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi aholi salomatligini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga katta hissa qo'shadi. Zamonaviy texnologiyalarning sog'liqni saqlash va jismoniy faollikni oshirishga bo'lgan ta'siri, shu bilan birga, insonlarning o'z sog'lig'iga mas'uliyat bilan yondashuvini rivojlantirishdagi o'rni ham yuksak ahamiyatga ega.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda odatiy metodlardan tashqari, interaktiv treninglar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi sog'liq monitoring tizimlari kabi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi aholining bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasida yaqin hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar tufayli aholi sog'lig'ini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va jismoniy faollikni oshirish borasida aniq va barqaror natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish jarayonida zamonaviy ilmiy yutuqlardan foydalanish insonlar ongida sog'lom hayot kechirish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Natijada, jamiyat a'zolari orasida uzoq umr ko'rish, yuqori ish samaradorligi va umumiy farovonlikning oshishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shakirjanova K.T., Yengil atletika aholini sog'lomlashtirish vositasi sifatida. Toshkent. UzDJTI nashriyot-matbaa bulimi- 2011, 32 b. URL: <http://tizim.nammqi.uz/elektron-kutubxona/fayl/161.pdf> (Дата обращения: 2.11.2020).

2. Осипов А. Ю., Гольм Л. А., Михайлова С. А. Формирование здоровьесберегающих компетенций будущих специалистов средствами физического воспитания. <http://www.euro.who.int/ru> (дата обращения: 05.11.2020).

3. Балвочюс, Миндаугас. Проблемы занятий физической культурой в условиях самоизоляции. <https://moluch.ru/archive/311/70493/> (дата обращения: 05.11.2020).
4. Шукуров Р. С. Талаба-Ёшларни Жисмоний Тарбия Ва Спорт Воситасида Соғлом Турмуш Маданиятини Ривожлантириш Педагогик Муаммо Сифатида // Интернаука. – 2020. – №. 28. – С.85-86.
5. Q.Sodiqov. Sog'lom turmush tarzini shakillantirish. //o'quv qo'llanma// Toshkent 2007 yil
6. F.I. Qo'ziyeva. The Importance Of Physical Education In Times Of Pandemics // Internatsional Journal of Progressive Sceiences and Technologies 2021 s 119-122
7. ФИ Кузиева Способы организации самостоятельной работы студентов физического образования // Проблемы науки 2021 4(65), s 65-67
8. QF Ismoilovna Methodological Foundations of a Healthy Lifestyle in Strengthening the Health of Students // Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) 02.03.2023 й 173-178 б
9. Rahim S., Diloobar S. The development of a culture of healthy lifestyle in student girls through physical education and sports as a pedagogical problem // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 69-73.
10. Абдулаев Ш. Д., Садриддинова Д. Х. Здоровье сберегающий подход на уроках физической культуры в начальной школе Health-saving approach in physical education lessons in primary school // ББК 74.005. 5я431+75я431 П781. – 2021. – С. 9.
11. Safarov D. Z. O. G. L., Nazarova N. E., Sadriddinova D. H. Q. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining maqsadi va vazifalari // Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1498-1505.
12. G.M. Akramova Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatga deontologik tayyorligi mohoyati // Ta'lim innovatsion tadqiqotlar 2022/№12/2 137-bet

MAXSUS MASHQLAR ORQALI UMUMIY CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Idiyev Rustam Dilmurodovich

BDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida bolalarda umumiy chidamlilikni tarbiyalashga yo'naltirilgan mashg'ulot vositalari, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda, jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillarning ijobiy ta'sir natijalari asoslab berilgan. Jismoniy yuklamalar berish va toliqishlarining oldini olishga qaratilgan tabiiy omillar orqali bolada ro'y beradigan o'zgarishlar ko'rsatilgan. Yosh engil atletikachilarning chidamliligini tarbiyalash uslubiyatiga qator yangi holatlar kiritilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, rezerv, jismoniy mashqlar, sog'lomlashtiruvchi kuchlar, chidamlilik, texnika, shaxs, qobiliyatlar, yuklama, toliqish, chiniqish, ko'nikma.

МЕТОД РАЗВИТИЯ ОБЩЕЙ ВЫНОСЛИВОСТИ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Идиев Рустам Дильмуродович

БДПИ Физическая культура студентка 2 курса факультета

Аннотация: В статье объяснены результаты положительного влияния физических упражнений, целебных сил природы и гигиенических факторов на физическое развитие детей и укрепление их здоровья. Показаны изменения, происходящие у ребенка под действием естественных факторов, направленных на предотвращение физического напряжения и утомления. В методику тренировки выносливости юных спортсменов включен ряд новых случаев.

Ключевые слова: Физическая подготовка, физические качества, резерв, физические упражнения, целебные силы, выносливость, техника, личность, способности, нагрузка, утомление, тренировка, мастерство.

A METHOD OF DEVELOPING GENERAL ENDURANCE THROUGH SPECIAL EXERCISES

Idiyev Rustam Dilmurodovich

BDPI Physical culture 2nd stage student of the faculty

Annotation: In the article, the results of positive effects of physical exercises, health-giving forces of nature, and hygienic factors in children's physical development and strengthening of their health are explained. The changes that occur in the child through natural factors aimed at preventing physical stress and exhaustion are shown.

A number of new cases have been included in the methodology of training endurance of young athletes.

Key words: Physical training, physical qualities, reserve, physical exercises, healing forces, endurance, technique, personality, abilities, loading, exhaustion, training, skill.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda chidamlilik darajasi ancha past bo'ladi. Biroq 10 yoshlarga kelib ularda tezkor ishni bir necha marta bajarishga (qisqa masofaga takroriy yugurish), shuningdek, nisbatan uzoq vaqt davomida kam shiddatli ishni (sekin yugurish) bajarishga bo'lgan qobiliyat oshadi. Demak, sekin yugurish kichik maktab yoshidan boshlab chidamlilikni rivojlantirish uchun muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin.

Birinchi mashg'ulotlardan oq umumiy chidamlilikni rivojlantirishgacha e'tibor qaratish lozim. Bunda bir maromli uzoq davom etadigan sekin yugurishdan foydalanish tavsiya etiladi. Mualliflar mashq paytida umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usullar va uslublari, shuningdek, bir guruh murabbiylar tomonidan o'tkazilgan tajriba hamda uning natijalarini ta'riflab berganlar. Biror bir faoliyatda charchoqqa qarshilik ko'rsatish qobiliyati chidamlilik deb ataladi.

Umumiy chidamlilik - insonning odatiy bo'lmagan faoliyatni uzoq vaqt va muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati.

Umumiy chidamlilikning namoyon bo'lishi asosida inson organizmining funksional xususiyatlari yotadi. Ular har xil turdagi harakat faoliyatiga nisbatan chidamlilik namoyon bo'lishining maxsus bo'lmagan asosini tashkil etadi.

Bu, birinchi navbatda, vegetativ funksiyalar, jumladan, energiya aerob manbasi unumdorligidir. Masalan, insonning nafas olish imkoniyatlarida o'ziga xoslik u qadar sezilmaydi. U harakatning tashqi shakliga u qadar bog'liq emas. Shuning uchun, agar kimdir yugurish mashg'ulotlari evaziga o'zining aerob imkoniyatlari darajasini ancha yaxshilab olsa, bu boshqa harakatlarning (yurish, eshkak eshish va x.k.) bajarilish unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Organizmning vegetativ tizimlari ishini takomillashtirishga asoslangan mashq bilan chiniqqanlikning maxsus bo'lmagan, umumlashtirilgan darajasi chidamlilikning bitta faoliyat turidan ikkinchisiga keng qamrovda o'tish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun ushbu chidamlilik turini «umumiy» sifatida belgilashga asos bo'ladi. Mushak ishi davomiyligi ortishi bilan chidamlilikning ko'chishi oshib boradi. Umumiy chidamlilikning ijobiy ko'chish samarasi sport amaliyotida va kasb-amaliy jismoniy tarbiyada keng qo'llaniladi.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun o'z tuzilishiga ko'ra musobaqa mashqlaridan yoki kasbga oid harakatlardan ancha yiroq bo'lgan, lekin yurak-tomir hamda nafas olish tizimlari uchun yuqori samarali hisoblangan mashqlar tez-tez qo'llaniladi.

Aerob xususiyatdagi ishga bo'lgan chidamlilik darajasini oraliqli va o'zgaruvchan uslublarning tegishli rejimlarini qo'llash yordamida oshirish mumkin.

